ТДИУ ҲУЗУРИДАГИ
ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ҚАЙТА
ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ
МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ
ТАРМОҚ МАРКАЗИ




# ЎҚУВ–УСЛУБИЙ МАЖМУА





ТОШКЕНТ-2021

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ПЕДАГОГ ВА РАҲБАР КАДРЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ БОШ ИЛМИЙ - МЕТОДИК МАРКАЗИ**

**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ ҲУЗУРИДАГИ ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ТАРМОҚ МАРКАЗИ**

**“БОЖХОНА ИШИ”**
**йўналиши**

# “ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТНИНГ БОЖХОНА ТАЪМИНОТИ”

**модули бўйича**

## Ў Қ У В –У С Л У Б И Й М А Ж М У А

**Тошкент – 2021**

**Mazkur o’quv-uslubiy majmua Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 7 dekabrdagi 648 -sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan o’quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**


| | |
|---|---|
| Tuzuvchi: | TDIU, iqtisod fanlari doktori, professor, A. Kucharov |
| Taqrizchilar: | Karimov F., Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti, Ph.d.<br>Raximov M., Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti, Ph.d. |



***O’quv -uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2020 yil 29 dekabrdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.***

# MUNDARIJA

**I. ISHCHI DASTUR ..................................................................................... 4**

**II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI ..................................................................................... 11**

**III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI........................................... 18**

**IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI............................................. 44**

**V. MASALALAR BANKI ................................................................................ 81**

**VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.......................................................... 87**

**VII. GLOSSARIY ............................................................................................ 89**

**VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI ................................................................ 101**

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Jaxon iqtisodiyotining globallashuvi mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdo xajmini oshishi Davlat bojxona organlari zimmasiga muxim vazifa юklaydi. Ushbu muxim vazifani to'la – to'kis ado etish uchun bojxona tizimi xodimlari bor bilim va tajribalarini ishga solishlari zarur.

Davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoni rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiysini kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashuviga sabab bo'lmoqda. Hozirgi bozor islohotlari yangi strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi.Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy isloxotlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni ragbatlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiy va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlat strategiyasining muxim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning o'ziga xos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan xolda, jaxon bozorining salbiy o'zgarishlaridan ximoya qiluvchi, unda egallangan mavqelarni saqlab qolish va kengaytirishni ta'minlovchi optimal (maqbul) darajadagi Protektsonizm va erkin savdo siyosati qo'llanilishini taqozo etadi.

O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechiraetgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish uchun o'zini erkin bozor girdobiga tashlab ko'y olmaydi. Bunday sharoitda davlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuviga zaruriyat to'g'iladi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan tartibga solinishi, ayniqsa, muximdir. Bu esa birinchi navbatda, tashqi savdoni va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa shakllarini tartibga solish mexanizmlarini o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga muntazam moslashtirib borishni, ya'ni oqilona tashqi iqtisodiy siyosat yurgizishni talab etadi.

Tinglovchilarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2017 yilning asosiy yakunlari va 2018 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 yanvardagi bo'lib o'tgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qatъiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak"[1] ma'ruzasi, "2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" nomli farmoni va 2017 yil 22 dekabiridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida

[1] SH.M. Mirziyoevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Xalq so'zi. 2017 yil, 16-yanvar.

keltirilgan ma’lumotlarni puxta o’zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondoshishlarini ta’minlash fanni o’rganish oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Jaxon savdosini globallashuvi tashqi savdo siyosati vositalaridan foydalanishni yanada takomillashtirishni, ya’ni xalqaro savdoni tartibga solish qoidalarini takomillashuvi, tashqi savdoni tartibga solishda bojxona maqsadlari uchun talab qilinadigan xujjatlar miqdorini qamaytirish, bojxona nazorati jarayonini qisqartirish va юridik va jismoniy shaxslarni bojxona nazoratidan o’tkazishda “qizil” va “yashil” yo’laklar tizimini joriy etilishi eksportiyor va importiyorlarga bojxona to’lovlari bo’yicha imtiyozlar berilishi ushbu fanni o’rganishga bo’lgan e’tiborni oshiradi.

## Modulning maqsadi va vazifalari

**“TIFda bojxona ta’minoti” modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini TIFda bojxona ta’minotining zamonaviy muammolari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, davlatning bojxona siyosati, strategik va taktik qaror qabul qilish tamoyillari va usullarini o’zlashtirish ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.

**“TIFda bojxona ta’minoti” modulining vazifalari:**

- bojxona ta’rif siyosatini samaradorligini oshirish bilan bog’liqlikda юzaga kelayotgan muammolarni aniqlashtirish;

— davlatning bojxona siyosati, boj-ta’rif siyosati, mamlakat tovarlarini eksportini tahlilini ko’rib chiqish milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarishda bojxona boj ta’rif siyosatini tahlilini ko’rib chiqadi;

— bojxona faoliyatini tahlili, nazorat qilish masalalarini hal qilish yo’llarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga o’rgatish.

## Modul bo’yicha tinglovchilarning bilimi, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar

“TIFda bojxona ta’minoti” modulini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

- davlatning bojxona siyosati bilan bog’liqlikda юzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo’llari;
- boj ta’rif siyosatini boshqarishning usul va uslublarini qo’llash bilan bog’liq muammolar;
- boj ta’rif siyosati boshqaruvining strategik darajasida, alohida bozor va tovarlar darajasida, instrumental darajada ta’riflarni belgilashni ishlab chiqish va qabul qilish bilan bog’liq muammolar va ularni hal etish yo’llarini **bilishi** kerak;

**Tinglovchi:**

- bojxona siyosatini boshqarish muammolarga doir keyslar tuzish, ulardan amaliyotda qo'llash;
- bojxonadagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish **ko'nikma va malakalarini egallashi** lozim;

**Tinglovchi:**

- boj ta'rif siyosatining zamonaviy usullarini ishlab chiqish;
- boj-ta'rif bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish **kompetentsiyalarini egallashi lozim.**

## Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"TIFda bojxona ta'minoti" kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompьюter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

## Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Bojxona ishi", "Menejment", "Bojxona logistikasi" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

## Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar davlatning boj-ta'rif siyosati muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

<table>
<tr><th rowspan="4">№</th><th rowspan="4">Modul mavzulari</th><th colspan="4">Tinglovchining o'quv юklamasi, soat</th></tr>
<tr><th colspan="4">Auditoriya o'quv юklamasi</th></tr>
<tr><th rowspan="2">jami</th><th colspan="3">jumladan</th></tr>
<tr><th>Nazariy mashg'ulot</th><th>Amaliy mashg'ulot</th><th>Ko'chma mashg'ulot</th></tr>
<tr><td>1</td><td>"TIFda bojxona ta'minoti" fanining predmeti va mazmuni</td><td>4</td><td>2</td><td>2</td><td></td></tr>
<tr><td>2</td><td>TIFda tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi</td><td>6</td><td>2</td><td>4</td><td></td></tr>
<tr><td>3</td><td>TIFda bojxona rasmiylashtiruvi, tovarlarni deklaratsiyalash</td><td>6</td><td>2</td><td>4</td><td></td></tr>
<tr><td>4</td><td>Bojxona to'lovlari va ularni undirish tartibi.</td><td>8</td><td>2</td><td>6</td><td></td></tr>
<tr><td></td><td>Жами:</td><td>24</td><td>8</td><td>16</td><td></td></tr>
</table>

## NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI
## Fan bo'yicha ma'ruza mavzulari va ularning mazmuni

### 1 – mavzu. "TIFda bojxona ta'minoti" fanining predmeti va mazmuni

Fanning predmeti va vazifasi. "TIFda bojxona ta'minoti" fanining mohiyati va maqsadlari. Bojxona taomillarining bojxona ishida tutgan o'rni. Fanning asosiy bajaradigan vazifalari. Bojxona taomillari amaliyotda qo'llanilishining darajalari. Tushunchalar va aniqlanmalar. Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tilganda amalga oshiriladigan asosiy taomillarining umumiy xarakteristikasi. Tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona ramiylashtiruvining asosiy printsiplari.

### 2 – mavzu. TIFda tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi

TIFda tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona ramiylashtiruvi mazmuni, mohiyati xamda asosiy printsiplari. Bojxona nazorati va bojxona nazoratini tashkillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Dastlabki

operatsiyalar, ularning vazifasi va qo'llash tartibi. Import va eksportning cheklash va ta'qiqlashlari. Bojxona nazoratini xorij davlatlarda tashkillashtirishnig o'ziga hos tomonlari.

### 3 – mavzu. TIFda bojxona rasmiylashtiruvi, tovarlarni deklaratsiyalash

TIFda bojxona rasmiylashtiruvining tartibi. Birinchi darajali tartibta va tezkor rasmiylashtiruvga oid tovarlar. Bojxona deklaratsiyasi. Bojxona rasmiylashtiruvining maxsus soddalashtirilgan taomillari. Tovarlarni vaqtincha saqlanishi va unga oid omborlar. Vaqtincha saqlash omborlari turlari va ularning egalari. Temir yo'lga tegishli vaqtincha saqlash omborlari. Tovarlarni qabul qiluvchi omborida tovarlarni vaqtincha saqlanishi. Bojxona organlari tomonidan tovarlarni omborlarga joylashtirilishi. Tovarlarni deklaratsiyalashtirish to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Hujjatlarni taqdim etish tartibi. Tovarlarni alohida turlarini bojxona organlarida deklaratsiyalash tartibi. Deklarant. Bojxona deklaratsiyasi, uning turlari va to'ldirish tartibi. Tovarlarning alohida turlarini deklaratsiyalash o'ziga xos xususiyatlari. Bojxona rejimlari klassifikatori. Valюta klassifikatori. Transport klassifikatori. OKPO va SOATO klassifikatorlari.

### 4 – mavzu. Bojxona to'lovlari va ularni undirish tartibi

Bojxona to'lovlari va ularning turlari. Umumiy ma'lumotlar. Avans to'lovlari. Bojxona bojlari va soliqlarning to'lash shakllari va ularni amalga oshirish tartibi. Bojxona to'lovlarini bo'lib va surib to'lanishi tartibi. Bojxona bojlari va soliqlari qaytarish tartibi. Bojxona yig'imlari. Bojxona tarifi. Tovarning bojxona qiymati va uni xisoblash usullari. Tovarning bojxona qiymatini deklaratsiyalanishi va uning tartibi. Bojxona soliqlari va ularning turlari. Bojxona aktsizi. Aktsizbop tovarlardan bojxona chegarasi orqali tashilishida soliqlar undirilishi va uning tartibi. Aktsiz solig'i stavkalari va uni hisoblash tartibi. Qo'shilgan qiymat solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va uni undirish tartibi. Soliqlar to'lash muddatlari va tartibi. Bojxona rejimlari tushunchasi va ularning turlari. Bojxona rejimlarini tanlash va tovarlarni ularning ostiga joylashtirilishi. Tovarlarni musodara qilinishi va uning oqibatlari. Tovarlar erkin muomalaga chiqarilishi. Ichki isteъmol uchun tovarlar chiqarilishi. Eksport va eksport nazorati. Xalqaro bojxona tranziti rejimi (XBT). Iqtisodiy rejimlar. Bojxona hududida va uning tashqarisida qayta ishlash rejimlari. Bojxona nazorati ostida qayta ishlash rejimi.

## AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

### 1 – amaliy mashg'ulot. "TIFda bojxona ta'minoti" fanining predmeti va mazmuni

Fanning predmeti va vazifasi. "TIFda bojxona ta'minoti" fanining mohiyati va maqsadlari. Bojxona taomillarining bojxona ishida tutgan o'rni. Fanning asosiy bajaradigan vazifalari. Bojxona taomillari amaliyotda qo'llanilishining darajalari. Tushunchalar va aniqlanmalar. Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tilganda amalga oshiriladigan asosiy taomillarining umumiy xarakteristikasi. Tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona ramiylashtiruvining asosiy printsiplari.

### 2 – amaliy mashg'ulot. TIFda tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi

TIFda tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona ramiylashtiruvi mazmuni, mohiyati xamda asosiy printsiplari. Bojxona nazorati va bojxona nazoratini tashkillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Dastlabki operatsiyalar, ularning vazifasi va qo'llash tartibi. Import va eksportning cheklash va ta'qiqlashlari. Bojxona nazoratini xorij davlatlarda tashkillashtirishnig o'ziga hos tomonlari.

### 3 – amaliy mashg'ulot. TIFda bojxona rasmiylashtiruvi, tovarlarni deklaratsiyalash

TIFda bojxona rasmiylashtiruvining tartibi. Birinchi darajali tartibta va tezkor rasmiylashtiruvga oid tovarlar. Bojxona deklaratsiyasi. Bojxona rasmiylashtiruvining maxsus soddalashtirilgan taomillari. Tovarlarni vaqtincha saqlanishi va unga oid omborlar. Vaqtincha saqlash omborlari turlari va ularning egalari. Temir yo'lga tegishli vaqtincha saqlash omborlari. Tovarlarni qabul qiluvchi omborida tovarlarni vaqtincha saqlanishi. Bojxona organlari tomonidan tovarlarni omborlarga joylashtirilishi. Tovarlarni deklaratsiyalashtirish to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Hujjatlarni taqdim etish tartibi. Tovarlarni alohida turlarini bojxona organlarida deklaratsiyalash tartibi. Deklarant. Bojxona deklaratsiyasi, uning turlari va to'ldirish tartibi. Tovarlarning alohida turlarini deklaratsiyalash o'ziga xos xususiyatlari. Bojxona rejimlari klassifikatori. Valюta klassifikatori. Transport klassifikatori. OKPO va SOATO klassifikatorlari.

### 4 – amaliy mashg'ulot. Bojxona to'lovlari va ularni undirish tartibi.

Bojxona to'lovlari va ularning turlari. Umumiy ma'lumotlar. Avans to'lovlari. Bojxona bojlari va soliqlarning to'lash shakllari va ularni amalga oshirish tartibi. Bojxona to'lovlarini bo'lib va surib to'lanishi tartibi. Bojxona bojlari va soliqlari qaytarish tartibi. Bojxona yig'imlari. Bojxona tarifi. Tovarning bojxona qiymati va uni xisoblash usullari. Tovarning bojxona qiymatini

deklaratsiyalanishi va uning tartibi. Bojxona soliqlari va ularning turlari. Bojxona aktsizi. Aktsizbop tovarlardan bojxona chegarasi orqali tashilishida soliqlar undirilishi va uning tartibi. Aktsiz solig'i stavkalari va uni hisoblash tartibi. Qo'shilgan qiymat solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va uni undirish tartibi. Soliqlar to'lash muddatlari va tartibi. Bojxona rejimlari tushunchasi va ularning turlari. Bojxona rejimlarini tanlash va tovarlarni ularning ostiga joylashtirilishi. Tovarlarni musodara qilinishi va uning oqibatlari. Tovarlar erkin muomalaga chiqarilishi. Ichki isteъmol uchun tovarlar chiqarilishi. Eksport va eksport nazorati. Xalqaro bojxona tranziti rejimi (XBT). Iqtisodiy rejimlar. Bojxona hududida va uning tashqarisida qayta ishlash rejimlari. Bojxona nazorati ostida qayta ishlash rejimi.

## KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

Mazkur modulning o'quv rejasida ko'chma mashg'ulot rejalashtirilmagan.

## O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

# II. MODULNI O’QITISHDA FOYDALANADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

## 1. Ma’ruza mashg’ulotida quyidagi interfaol o’qitish metodlaridan foydalaniladi:

**“FSMU” metodi**

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o’zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg’ulotlarida, mustahkamlashda, o’tilgan mavzuni so’rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg’ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo’lgan yakuniy xulosa yoki g’oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog’ozlarni tarqatiladi:

| | |
|---|---|
| **Ф** | • фикрингизни баён этинг |
| **С** | • фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг |
| **М** | • кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг |
| **У** | • фикрингизни умумлаштиринг |

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o’zlashtirilishiga asos bo’ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** “TIFda bojxona ta’minoti”ni belgilab beruvchi vositalarning faoliyat yo’nalishini belgilab berish**”.**

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

**“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish

faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



**Тест**

- 1. Товарнинг бозорга кириб келиш даврида харидорлар кимлар бўлади?
- A. новаторлар
- B. консерваторлар
- C. Янгилик киритувчи



**Қиёсий таҳлил**

- Бозор конюнктурасини таҳлил қилинг?



**Тушунча таҳлили**

- МАТ қисқартмасини изоҳланг



**Амалий кўникма**

- Ахборот тўплаш учун саволнома тузинг?

**"Insert" metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini krituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan

foydalanish tavsiya etiladi:

| **Belgilar** | **1-matn** | **2-matn** | **3-matn** |
|---|---|---|---|
| “V” – tanish ma’lumot. | | | |
| “?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak. | | | |
| “+” bu ma’lumot men uchun yangilik. | | | |
| “– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman? | | | |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to’liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi.

**2. Amaliyot mashg’ulotida quyidagi interfaol o’qitish metodlaridan foydalaniladi:**

**“SWOT-tahlil” metodi.**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo’llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.




**Namuna “AXMAD” oilaviy korxonasining SWOT taxlili**ni ushbu jadvalga tushiring.

| *Imkoniyatlari* | *Kuchli tomonlari* |
| --- | --- |
| ❖ Kichik bozor mavjudligi;<br>❖ kuchsiz raqobatchilar borligi;<br>❖ isteъmolchilar o'rtasida yaxshi obro'ga egaligi;<br>❖ юqori malakali ishchilar guruhi borligi; | ❖ savdoda ko'p yillik tajribasiga ega;<br>❖ bozorda kuchli va etakchilik pozitsiyasiga ega;<br>❖ Samarali reklama siyosatini olib boradi va mijozlarni rag'batlantirish tajribasiga ega;<br>❖ zamonaviy texnika va texnologiyaga ega;<br>❖ kuchli xalqaro aloqalarga ega<br>❖ boshqaruv tizimini to'g'ri qaror qabul qilishda etakchiligi; |
| ***Xavf xatarlar*** | ***Kuchsiz tomonlari*** |
| ❖ raqobatchilarning isteъmolchiga nisbatan nomunofiq ishlari;<br>❖ oldindan aytib bo'lmaydigan biznes sohasini paydo bo'lishi;<br>❖ «noqonuniy» distribьюtorlik tizimining bozorda mavjudligi;<br>❖ Nazoratchi tashkilotlarning noqonuniy aralashuvi. | ❖ qatъiy o'rnatilgan baho siyosati;<br>❖ distribьюtorlik tizimining markazlashtirilgan boshqaruvi;<br>❖ Keng miqyosdagi reklama faoliyatini tadbiq etilmaganligi. |

**Xulosalash» (Rezюme, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu юzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

**Методни амалга ошириш тартиби:**



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлр билан тўлдирилади ва мавзу

**Namuna:**

| **Marketing kontseptsiyalari** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Sotish** | | **Tovar** | | **Marketing** | |
| afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi |
| | | | | | |
| **Xulosa:** | | | | | |

**"Keys-stadi" metodi**

**"Keys-stadi"** - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|---|---|
| **1-bosqich:** Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish | ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;<br>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);<br>✓ axborotni umumlashtirish;<br>✓ axborot tahlili;<br>✓ muammolarni aniqlash |
| **2-bosqich:** Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig’ni belgilash | ✓ individual va guruhda ishlash;<br>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;<br>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| **3-bosqich:** Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining echimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish | ✓ individual va guruhda ishlash;<br>✓ muqobil echim yo’llarini ishlab chiqish;<br>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish;<br>✓ muqobil echimlarni tanlash |
| **4-bosqich:** Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | ✓ yakka va guruhda ishlash;<br>✓ muqobil variantlarni amalda qo’llash imkoniyatlarini asoslash;<br>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;<br>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish |

**Keys.** Mahsulot sifati nazorati modelini ishlab chiqish. Xarid nomenklaturasini aniqlash. Mijozlarni izlab topish va savdo bitimlari tuzish tamoyillarini ishlab chiqish. Bozor sig’imini baholash va tovar ishlab chiqarish bo’yicha qaror qabul qilish

**Кейсни бажариш босқчилари ва топшириқлар:**

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг(индивидуал ва кичик гурухда).
- Маҳсулот сифати назорати моделини кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

**“Brifing” metodi**

“Brifing”- (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag’ishlangan qisqa press-konferentsiya.

**O’tkazish bosqichlari:**

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. SHuningdek, amaliy o’yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga

dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

**"Portfolio" metodi**

"Portfolio" – ( ital. portfolio-portfelь, ingl.hujjatlar uchun papka) ta'limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o'quv-metodik ishlari, kasbiy ютuqlari yig'indisi sifatida aks etadi. Jumladan, talaba yoki tinglovchilarning modul юzasidan o'zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

| **Faoliyat turi** | **Ish shakli** | |
|---|---|---|
| | **Individual** | **Guruhiy** |
| Ta'limiy faoliyat | Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq. | Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq. |
| Pedagogik faoliyat | O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi | Kafedra, fakulьtet, markaz, OTM portfoliosi va boshq. |

# III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

## I- MAVZU. "TIFDA BOJXONA TA'MINOTI" FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1."TIFda bojxona ta'minoti" fanining predmeti va uning asosiy vazifalari.

2.Kursning mazmuni va moxiyati.

### 1.1 "TIFda bojxona ta'minoti" fanining predmeti va uning asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng chet davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatish, tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish, respublikaga chet el investitsiyalarini jalb qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni mikrodarajada intensivlashtirish, tashqi savdo oborotida markazlashgan eksport va import ulushini kamaytirish, mijozlarga valюta xizmatini ko'rsatadigan tijorat banklari sonini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar eng dolzarb vazifalardan bo'lib qoldi. Bu masalalarning muqobil xal etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekistonning eksport potentsialini oshirish, xom ashyo eksportini tayer maxsulot va xizmatlar eksporti bilan almashtirish, so'mning erkin konvertirlanishiga erishish, pirovard natijada esa O'zbekiston aholisining turmush darajasini oshirishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda nimani tushunish lozim? Bu faoliyat nima uchun qo'llab-quvvatlanadi?

Ma'muriy-bo'yruqbozlik sistemasidan bozor iktisodiyotiga o'tish davrida tashkil iqtisodiy faoliyat tushunchasi ko'pincha tashqi savdo tushunchasi bilan almashtiriladi. Lekin bu ikki tushuncha o'zaro bog'liq bo'lgani bilan ularni farqlash lozim. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda ikki yoki undan ko'p mamlakatlar xududida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subъektlarining o'zaro iqtisodiy aloqalarini tushunish kerak. Bunda xo'jalik subъektlari sifatida davlat organlari va davlat korxonalari ham ishtirok etishi mumkin. O'zaro iqtisodiy aloqalar faqatgina savdo operatsiyalarini o'tkaziydan iborat bo'lib qolmay, shuningdek kreditlash, investitsiyalar kiritish, qo'shma korxonalar vositasida bahamjihat iktisodiy faoliyat юritish ham shular jumlasidandir. Tashqi savdo esa tashqi iqtisodiy aloqalarga doir sohasi bo'lib, turli mamlakat xo'jalik subъektlarining savdo opertsiyalarini o'z ichiga oladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat юritish davomida o'zaro xo'jalik munosabatlariga kirishayotgan xo'jalik subъektlari tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari deb юritiladi. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari alohida rqyxatga olinib ularga maxsus guvohnoma beriladi. Bunday holat tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, ishtirokchilarga maxsus imtiyozlar berish orqapi mazko'r faoliyatni rag'batlantirish, bojxona hisobini takomillashtirishga yo'naltirilgan. hozirgi kunda pul-kredit va valюta siyosatining rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xos bo'lgan metodlaridan to'laligicha foidalanish

maqsadga muvofik emas. Bunga sabab xalk xo'jaligidagi bir kator ijtimoiy-iktisodiy muammolarning xal etilmagailigidir.

Xalq xo'jaligining noustivor holati, uni tarkibiy qayta ko'rishning yakunlanmaganligi, ichki ishlab chiqarish ma'lum tarmoqlarining dunyo darajasiga etishmaganliga amaliyotda alohida korxonalar, mintaqalar va birinchi darajali ijtimoiy dasturlarning asosan davlat tomonidan moliyalanishini saklab qolishni talab qiladi.

Tashqi savdo muammolarining xal etilmaganligi chet el valюtasining muomalasi va valюta operatsiyalari bo'yicha bo'yrukbozlik iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan юridik cheklanishlarning saklanib qolishi va ma'lum darajada kuchaytirilishiga sabab bo'ladi. Bu holda valюta munosabatlarini tartibga solishda maxsus valюta qonunchiligi muhim rolь to'tadi.

Bugungi kunda ko'lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga baho berar ekanmiz har bir mamlakat tomonidan tashqi savdo aylanmasini oshirish masalalariga bo'lgan e'tiborni olib kirilayotgan tovarlar tarkibi va sifatiga bo'lgan talablarni xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlashni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2016 yilning asosiy yakunlari va 2017yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 yanvardagi bo'lib o'tgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qatъiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak"[2] ma'ruzasi va "2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" nomli farmonida keltirilgan materiallar, qoidalar va xuloslarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondoshishlarini ta'minlash fanni o'rganish oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida to'xtalib "... bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – isteъmol talabini kengaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obъektlarini rivojlantrishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir"[3] deb ta'kidlab o'tdilar.

SHuningdek, "Bugungi kunda tadbirkorlik subьektlarining 98 foizini soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtrishni

---

[2] SH.M. Mirziyoevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Xalq so'zi. 2017 yil, 16-yanvar.

[3] Karimov I.A.. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseпtsiyasi: O'zbekiston Resпublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik пalatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maъruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 7 b.

eski usuldagi qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita-elektron shaklda amalga oshirmoqda”[4].

Ushbu masalalarni amalga oshirishda TIFda bojxona ta'minoti fanida o'rganiladigan modullar va nazariy-amaliy masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xozirgi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini yanada jadallashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat institutlaridan biri bo'lmish bojxona organlari faoliyatini samaradorligini oshirish masalalarini dolzarb qilib qo'ymoqda. Bojxona organlari faoliyatini samaradorligini oshirish bojxona tizimidagi boshqarish tamoyillari va uslublarini yaxshilash, bojxona infratuzilmasini modernizatsiyalash bilan uzviy bog'liqdir. SHuning uchun magistrantlarda bojxona obъektlari faoliyatini tahlil qilish va bojxona jarayonlari texnologiyalarini to'liq amalga oshirilishini baholash natijasida bojxona taomillarini rivojlantirishni lozimligi to'g'risida nazariy va amaliy mulohazalar юritish ko'nikmalarini hosil qilish va shakllantirishda «TIFda bojxona ta'minoti» fanini o'qitilishi muhim ahamiyatga egadir.

## 1.2 Kursning mazmuni va moxiyati

“TIFda bojxona ta'minoti” fanini o'qitishdan maqsad magistrantlarda bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati, ularni o'tkazish texnologik tizimining asosiy tashkil etuvchilari va texnologik jarayonlarni xalqaro konventsiyalar talablari asosida yanada soddalashtirishning lozimligi to'g'risida ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

-O'zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishi, xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarini o'rganish;

- bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish;

- xalqaro bojxona huquqi meъyorlari talablariga mos ravishda takomillashtirish:;

- bojxona taomillarining bojxona ishida tutgan o'rni;

-xalqaro bojxona taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha konventsiyani (Kioto, 1973 y.) o'rganishdan iborat.

SHuningdek, “TIFda bojxona ta'minoti” fani fundamental fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

1) tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tilganda amalga oshiriladigan asosiy taomillarining umumiy xarakteristikasini, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojxona bojlarini undirishni, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirishda talab etiladigan xujjatlarni aniqlash;

2) tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona ramiylashtiruvi mazmuni va mohiyati va asosiy printsiplarini, bojxona nazorati

[4] Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish-ustuvor vazifamizdir. Xalq so'zi 17 yanvar 2015 yil.

texnik vositalari tushunchasi va ularni bojxona organlarining tezkor faoliyatida qo’llanilishi;

3) ichki bojxona tranziti ruhsatnomalari va ularning rasmiylashtirish tartibini, tovarlarni deklaratsiyalashtirish to’g’risida umumiy ma’lumotlarni, bojxona rejimlarini tanlash va tovarlarni ularning ostiga joylashtirilishi to’g’risida**.**

## Qisqacha xulosa

Xozirgi mamlakatlar o’rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini yanada jadallashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat institutlaridan biri bo’lmish bojxona organlari faoliyatini samaradorligini oshirish masalalarini dolzarb qilib qo’ymoqda. Bojxona organlari faoliyatini samaradorligini oshirish bojxona tizimidagi boshqarish tamoyillari va uslublarini yaxshilash, bojxona infratuzilmasini modernizatsiyalash bilan uzviy bog’liqdir. SHuning uchun magistrantlarda bojxona obъektlari faoliyatini tahlil qilish va bojxona jarayonlari texnologiyalarini to’liq amalga oshirilishini baholash natijasida bojxona taomillarini rivojlantirishni lozimligi to’g’risida nazariy va amaliy mulohazalar юritish ko’nikmalarini hosil qilish va shakllantirishda «TIFda bojxona ta’minoti» fanini o’qitilishi muhim ahamiyatga egadir.

**Mustaqil ishlash va o’z – o’zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Tashqi iqtisodiy siyosat deganda nima tushinasiz?
2. Respublikamizni tashqi iqtisodiy siyosatini qanday yo’nalishlari mavjud?
3. Boj tarifining iqtisodiy mohiyati nima?
4. Tashqi iqtiodiy faoliyat tovar nomenklaturasi deganda nima tushunasiz?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tatibga solish usullari to’g’risida nimalarni bilasiz?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Kodeksi. T. Adolat, 2017.

2. Jismoniy shaxslardan tomonidan bojxona chegaralari orqali tovarlar olib utilishini yanada tartibga solish tugrisida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 06.02.2018 yildagi PQ-3512-son, Kuchga kirish sanasi 08.02.2018

3. O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasining qarori 09.03.2018 yilda ro’yxatdan o’tgan, ro’yxat raqami 2856-1, Kuchga kirish sanasi 09.03.2018

4. Sh.Sh.Shoraxmedov, N.I.Asqarov, A.A.Namozov –Tashqi savdoni boj tarifi orqali tartibga solish. T: Fan va tehnologiya markazi, 2013 y. 11-73 bet.

5. A.P.Kireev – Mejdunarodnaya ekonomika. M: Mejdunarodnыy otnosheniya, 2014 g. 67-70 str.

6. V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED. M: Ekonomist, 2014

7. V.B.Buglay, N.N.Livensev – Mejdunarodnыe ekonomicheskie otnosheniya. M: Finansы istatistika, 2015 g 13-21str.

## II – MAVZU. TIFDA TOVARLAR VA TRANSPORT VOSITALARINING BOJXONA NAZORATI VA BOJXONA RASMIYLASHTIRUVI

2.1. Tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona ramiylashtiruvi mazmuni, mohiyati xamda asosiy printsiplari

2.2. Bojxona nazorati va bojxona nazoratini tashkillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

2.3. Dastlabki operatsiyalar, ularning vazifasi va qo'llash tartibi. Import va eksportning cheklash va ta'qiqlashlari.

2.4. Bojxona nazoratini xorij davlatlarda tashkillashtirishnig o'ziga hos tomonlari.

### 2.1. Tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona ramiylashtiruvi mazmuni, mohiyati xamda asosiy printsiplari

Юk kelib tushuvchi bojxona organiga topshirilishi lozim bo'lgan hujjatlar qaysi tovarlar va transport vositalariga tegishli bo'lsa, o'sha tovarlar va transport vositalari bilan bir xil tartibda etkaziladi.

Tashuvchining huquqlari va majburiyatlari - Tashuvchi quyidagi hollarda tovarlar va transport vositalarini tashish uchun qabul qilmaslikka haqli:

bojxona va transport hujjatlari belgilangan tartibni buzgan holda rasmiylashtirilgan bo'lsa;

bojxona tomonidan transport vositasiga va tovarlar joylangan o'rov-idishlarga qo'yilgan ta'minlov choralari tashilayotgan tovarlarga ana shu ta'minlov choralarini buzmasdan tegish imkoniyatini istisno etmasa.

Tovarlar, transport vositalari va ularga oid hujjatlarni tashish uchun qabul qilib olgan tashuvchi:

- ✓ ularni jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan manzilga, yo'nalishda va muddatda, tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlaridagi kamayish oqibatidagi o'zgarishlarni istisno etganda, ularning o'rov-idishlari yoki holatini o'zgartirmasdan, eltib berishdan boshqa maqsadda foydalanmasdan etkazib berishi;
- ✓ tovarlar, transport vositalari va ularga oid hujjatlarni юk kelib tushadigan bojxona organida ko'rsatishi, bu organ mansabdor shaxslarining talabiga binoan esa-tovarlar va transport vositalarini amalda taqdim etishi;bojxona nazorati ostida turgan tovarlar bilan bir vaqtda boshqa tovarlarni tashimasligi shart.

Юk eltib beriladigan joyiga etib kelganidan keyin tashuvchi bojxona organining ruxsatisiz tovarlar va transport vositasini to'xtash joyida qarovsiz qoldirish, to'xtash joyini o'zgartirish, yo'lovchilarni tushirish, tovarlar bilan biron-bir ortish-tushirish va o'rash-joylash operatsiyalarini o'tkazish, qiyoslash vositalarini o'zgartirish, olib tashlash yoki yo'q qilish huquqiga ega emas.

Agar tashuvchi, yo'lovchilarning va transport vositasi ekipajining hayoti hamda sog'lig'i chinakam xavf ostida qolganligini, tovarlar va transport vositasining yo'q qilinishi, qaytarib bo'lmaydigan tarzda qo'ldan ketishi yoki jiddiy buzilishi xavfi mavjud bo'lganligini isbotlasa, ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlaridagi talablarni buzganlik uchun javobgarlik юzaga kelmaydi.

Ko’rsatilgan talablar buzilishiga sabab bo’lgan holatlar to’g’risida tashuvchi darhol bojxona organini xabardor qilishi shart.

Agar tashuvchi yoxud uning transport vositasi ushbu Kodeksning talablariga rioya etilishini kafolatlay olmasa, bojxona organi transport vositasi faqat tegishlicha jihozlangan yoki bojxona kuzatuviga olingan yoxud bojxona to’lovlari to’lanishini ta’minlovchi garov summalari kiritilgan yoki tovarlar bojxona tashuvchisi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashilgan taqdirdagina tovarlarning bojxona nazorati ostida olib o’tilishiga yo’l qo’yishga haqli. (O’zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi qism) Ayrim toifadagi tovarlarni tashuvchilar uchun qonun hujjatlarida boshqacha talablar belgilanishi mumkin.

## 2.2. Bojxona nazorati va bojxona nazoratini tashkillashtirishning asosiy yo’nalishlari.

O’zbekiston Respublikasi bojxona xizmati o’z faoliyatida ichki va tashqi siyosatni tarkibiy qismi hisoblanuvchi yagona bojxona siyosatini amalga oshirib kelmokda. Bojxona xizmatini asosiy maqsadlari O’zbekiston Respublikasi bojxonga hududidan samarali bojxona nazoratini hamda tovarlar ayrboshlashni tartibga solishni ta’minlashdan iqtisodiyotning rivojlanishini rag’batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iborat bo’lib, bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o’tish, boj to’lovlarin undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan iborat.

Bojxona nazorati – qonun hujjatlari va halkaro shartnomalarga rioya etilishini ta’minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidir. Bojxona rejimi – O’zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orkali olib utiladigan tovarlar va transport vositalari makomini bojxona mkksadlari uchun belgilovchi koidalar majmuidir.

Bojxona nazorati maqsadi – O’zbekiston Respublikasi bojxona konunchiligini, bojxona tarifi to’g’risidagi qonunini va boshqa qonun va normativ aktlarni shu bilan birga O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy masalalariga tegishli xalkaro shartnomalarni bajarishda xalkaro normalarga rioya qilingan holda faoliyat kursatadi.

Bojxona nazorati obъekti- bojxona hududidan utayotgan tovarlar, transport vositalari. ular to’g’risida hujjat va malumotlar, tovar va transport vositalariga tegishli jismoniy va юridik shaxslar, bojxona brokerlari, deklarantlar ularning hujjati va ular tovarlar va transport vositalariga nisbatan tanlagan bojxona rejimlari shulardan iborat.

Bojxona nazorati asosan bojxona zonasida tashkil qilinadi. Bojxona zonasi bojxona hududi atrofi va bojxona organi tomonidan aniqlangan, bojxona organi joylashgan erlarda, bojxona rasmiylashtirish joylari hisoblanadi.

Bojxona nazorati jarayonida- tovarlarning harakati, uning ishlab chikarilishi jaraeni, saklash, sotilishi, sotib olinishi, uklanishi, tushirilishi, joylanishi, sugurtasi, va boshkalar kurish mumkin. Bu tovarlarni kaysi davlatdan kelib chikishini, bojxona kiymatini, va TIF TN asosida tugri aniklash bojxona nazorati asosiy funksiyalaridan hisoblanadi.

## 2.3. Dastlabki operatsiyalar, ularning vazifasi va qo’llash tartibi. Import va eksportning cheklash va ta’qiqlashlari.

O’zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o’tishdagi cheklovlar - Davlat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, ma’naviyat, inson hayoti va salomatligini saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, O’zbekiston Respublikasi hamda boshqa mamlakatlar xalqlarining badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklarini, mulk huquqini, shu jumladan intellektual mulk obъektlariga bo’lgan huquqni, olib kirilayotgan tovarlarni isteъmol qiluvchilarning manfaatlarini himoya qilish, shuningdek O’zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalariga muvofiq ayrim tovarlar va transport vositalarini O’zbekiston Respublikasiga olib kirish va O’zbekiston Respublikasidan olib chiqish taqiqlanishi mumkin.

Bojxona chegarasi orqali olib o’tish taqiqlangan tovarlar va transport vositalari, agar O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida yoki xalqaro shartnomalarida bu tovarlar va transport vositalarini musodara qilish nazarda tutilmagan bo’lsa, darhol O’zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilishi yoxud O’zbekiston Respublikasi hududiga qaytarilishi shart.

Tovarlar va transport vositalarini olib chiqib ketishni yoki qaytarishni olib o’tayotgan shaxs yoxud tashuvchi o’z hisobidan amalga oshiradi. Tovarlar va transport vositalari darhol olib chiqib ketilmagan yoki qaytarilmagan taqdirda ular bojxona organiga qarashli bo’lgan omborga vaqtincha saqlash rejimi ostida joylashtiriladi. Saqlash muddati uch sutka bo’ladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

O’zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 39-moddasiga asosan bojxona chegarasi orqali olib o’tilaetgan tovarlar va transport vositalari bojxona nazorati bojxona organlarining mansabdor shahslari tomonidan quyidagi yo’llar bilan o’tkaziladi:1

- bojxona maqsadlari uchun zarur bo’lgan hujjatlar va ma’lumotlarni tekshirish;
- jismoniy shahslarni og’zaki so’rab-surishtirish;
- bojxona ko’rigidan o’tkazish;
- tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona tomonidan qieslash;
- tovarlar va transport vositalarini hisobga olish;
- hisobga olish va hisobot tizimini tekshirish;
- bojxona nazoratidan o’tkazilishi lozim bo’lgan tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo’lgan ehud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga uklatilgan faoliyat amalga oshirilaetgan hududlar, binolar va boshqa joylarni tekshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda.

## 2.4. Bojxona nazoratini xorij davlatlarda tashkillashtirishnig o’ziga hos tomonlari

Bojxona organlari bojxona nazoratini utkazishda, koida tarikasida, nazoratning konun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash uchun etarli bulgan shakllarini kullaydilar, bu bojxona nazoratini tashkil kilishning prinsipidir.

Bojxona nazoratining ayrim shakllarini kullamaslik eki ulardan ozod kilinishini bildirmaydi. Masalan Respublikada bojxona imtieziga ega bo’lgan CHet el diplomatlari va vakolathonalari eki ularga tenglashtirilgan chet davlat vakillari agar ish uzasida davlat bojxona chegarasidan o’tsa, Vena konvensiyasi asosida hamma bojxona kurigidan ozod kilinadi jumladan shahsiy kurigdan ham. Bu holda bojxona nazoratining fakat hujjatlarni tekshirish shakli kullaniladi.

Zarurat bulganda bojxona organlari, agar konun hujjatlarida boshkacha tartib nazarda tutilmagan bulsa, bojxona nazoratining Kodeksda belgilangan barcha shakllardan foydalanish mumkin. Bojxona nazoratini utkazish bojxona chegarasidan utaetgan tovarlarni harakteri, kiymati tanlangan bojxona rejimidan kelib chikkan holda tanlanadi.

Masalan, erkin muomalaga chikarish, reimport va bojxona ombori rejimida Respublika bojxona hududiga kiritilgan tovarlarning bojxona ramiylashtiruvini amalga oshiraetgan bojxona hizmatchisi kamida 50% ni kurigdan utkazishi lozim buladi sharoitlar:

• tovarni kodi eki uni nomi va kilib chikkan davlatning nomlari hujjatlarda turlicha tariflangan bulsa;

• bir tovar transportida turli tovarlarning uklanishi va ichida ukori foizli tovarlarni aniklash.

Agar tovarlarga bojga va solikka tortilmagan bulsa bojxona nazoratining kieslash usulin kullanishi mumkin. Bojxona nazoratini u eki bu shakllarini kullash bojxona masъul hodimi uz hohishiga binoan utkazishi mumkin.

Bojxona organlari bojxona nazoratini tashkil kilishda respublika man etilagan buumlarni kirib kelishiga karshi karatilgan bulsa bunaka nazorat uklarni 100% kurigdan utkazishi kerak buladi. Bunaka nazoratlarni asosan vakti vakti bilan havo transportlarini, юlovchilari, ularning bagaji va kul ukilari bilan utkazib turilishi kerak. Xamma havo transportlarini va юlovchilarni 100% kurigdan utkazish jismoniy mumkin emas, shuning uchun asosiy kurig reyslarni kaerdan kelishi ularning юlovchilari olib kelaetgan tovarlarni harakteri, va boshkalar sabab buladi. Bojxona nazorati prinsipi asosida tanlangan shakl uzining inson hukukiga va salomatligia putur etmasligi kerak. SHuning uchun shahsni kuzdan kechirish bojxona kurigining ohrigi shakli hisoblanadi.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilish O’zbekiston Respublikasining konun hujjatlari va halkaro shartnomalariga muvofik amalga oshiriladi. O’zbekiston Respublikasi oliy majlis deputatlari va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarining shahsiy bagaji, agar mazkur shahslar hizmat vazifalarini bajarish bilan bog’liq holda O’zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o’tayotgan bo’lsalar. Bojxona tekshiruvidan ozod kilinadi.

CHet el harbiy kemalari, jangovar va harbiy transport havo kemalari, shuningdek uzi urib kelaetgan harbiy tehnikasi bojxona tekshiruvidan ozod kilinadi.

## Qisqacha xulosa

O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmati o'z faoliyatida ichki va tashqi siyosatni tarkibiy qismi hisoblanuvchi yagona bojxona siyosatini amalga oshirib kelmokda. Bojxona xizmatini asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi bojxonga hududidan samarali bojxona nazoratini hamda tovarlar ayrboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iborat bo'lib, bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarin undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan iborat.

Bojxona nazorati – qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidir. Bojxona rejimi – O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarlar va transport vositalari maqomini bojxona mqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmuidir.

## Mustaqil ishlash va o'z – o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona ramiylashtiruvi mazmuni, mohiyati hamda asosiy printsiplari
2. Bojxona nazorati va bojxona nazoratini tashkillashtirishning asosiy yo'nalishlari.
3. Dastlabki operatsiyalar, ularning vazifasi va qo'llash tartibi. Import va eksportning cheklash va ta'qiqlashlari.
4. Bojxona nazoratini xorij davlatlarda tashkillashtirishnig o'ziga hos tomonlari.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar:


1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Kodeksi. T. Adolat, 2017.

2. Jismoniy shaxslardan tomonidan bojxona chegaralari orqali tovarlar olib utilishini yanada tartibga solish tugrisida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 06.02.2018 yildagi PQ-3512-son, Kuchga kirish sanasi 08.02.2018

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining qarori 09.03.2018 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2856-1, Kuchga kirish sanasi 09.03.2018

4. Sh.Sh.Shoraxmedov, N.I.Asqarov, A.A.Namozov –Tashqi savdoni boj tarifi orqali tartibga solish. T: Fan va tehnologiya markazi, 2013 y. 11-73 bet.

5. A.P.Kireev – Mejdunarodnaya ekonomika. M: Mejdunarodnыy otnosheniya, 2014 g. 67-70 str.

6. V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED. M: Ekonomist, 2014

7. V.B.Buglay, N.N.Livensev – Mejdunarodnыe ekonomicheskie otnosheniya. M: Finansы istatistika, 2015 g 13-21str.

## III- MAVZU. BOJXONA RASMIYLASHTIRUVI.

3.1.Bojxona rasmiylashtiruvining tartibi.

3.2.Birinchi darajali tartibta va tezkor rasmiylashtiruvga oid tovarlar.

3.3.Bojxona deklaratsiyasi. Bojxona rasmiylashtiruvining maxsus soddalashtirilgan taomillari.

3.4.Tovarlarni deklaratsiyalashtirish to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

### 3.1.Bojxona rasmiylashtiruvining tartibi.

Bojxona rasmiyatchiliklari va tartiblari tovar mamlakat chegarasini kesib o'tgan paytdan boshlanadi. Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish joyi va vaqti - Bojxona rasmiylashtiruvi bojxona organi faoliyat ko'rsatadigan zonadagi shu maqsad uchun ajratilgan, tovarlarni jo'natuvchi yoki oluvchi yoxud ularning tarkibiy bo'linmasi joylashgan erlarda bojxona organining ish vaqtida amalga oshiriladi.

Manfaatdor shaxsning yozma iltimosnomasiga binoan uning hisobidan va bojxona organining roziligi bilan bojxona rasmiylashtiruvi boshqa joylarda va bojxona organining ish vaqtidan tashqari vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona organlari joylashgan erlarda emas, bevosita o'z hududlarida yoki binolarida bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazishdan manfaatdor bo'lgan юridik va jismoniy shaxslar bu organlarga xizmat va maishiy binolarini, uskunalar hamda aloqa vositalarini bepul berib qo'yadilar.

Bojxona rasmiylashtiruvi muddatlari - Bojxona organi tovarlar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan hamda barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan paytdan boshlab o'n kundan kechiktirmay, ushbu Kodeks 81-moddasining birinchi qismida tilga olingan tovarlarga nisbatan esa-uch kundan kechiktirmay amalga oshiradi. Mazkur muddatlar davlatning boshqa organlari tovarlar va transport vositalarini nazorat qilishi uchun zarur bo'lgan vaqtni o'z ichiga olmaydi.

Bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida vakolatli shaxslarning hozir bo'lishi - Bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida ishtirok etishga haqlidir, bojxona organi mansabdor shaxslarining talabiga binoan esa, bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida hozir bo'lishlari va rasmiylashtirishni amalga oshirishda ularga zarur yordam ko'rsatishlari shart.

Tovarlar va transport vositalari bilan bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan operatsiyalarni o'tkazish - Bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tuvchi shaxs, tashuvchi, ombor egasi yoki tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan boshqa shaxs bojxona organining talabiga binoan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlarni transportda tashish, tortishni yoki ularning miqdorini boshqacha tarzda aniqlashni, ortish, tushirish, qayta ortish, buzilgan o'rovlarni tuzatish, o'rovlarni ochish, tovarlar va transport

vositalarini o'rash yoki qayta o'rashni, shuningdek bunday tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan binolar, idishlar va boshqa joylarni ochishni o'z hisobidan amalga oshirishi shart.

Bojxona ombori - Bojxona ombori shunday rejimki, bunda olib kirilgan tovarlar saqlash davrida import boji, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan bojxona nazorati ostida saqlanadi, eksport rejimida olib chiqishga mo'ljallangan tovarlar esa bojxona nazorati ostida ushbu Kodeksning 26-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar berilgan holda saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o'tish man etilgan tovarlar hamda ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa tovarlar bojxona ombori rejimiga joylashtirilishi mumkin emas.

Tovarlar bojxona ombori rejimida uch yil mobaynida turishi mumkin. Ushbu muddat tovarlarning ayrim toifalari va ayrim shaxslar uchun qonun hujjatlari bilan cheklanishi mumkin, lekin u bir yildan kam bo'lmasligi kerak.

### 3.2.Birinchi darajali tartibta va tezkor rasmiylashtiruvga oid tovarlar

Belgilangan muddat tugagunga qadar tovarga nisbatan vakolatga ega bo'lgan shaxs tomonidan tovarni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish so'ralishi kerak. Bu talablarga rioya etilmagan taqdirda, tovar bojxona organiga qarashli bojxona omboriga vaqtincha saqlash rejimiga joylashtiriladi.

Bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi ushbu Kodeksda belgilanadi.

Vaqtincha saqlash - Vaqtincha saqlash shunday rejimki, bunda olib kirilgan tovarlar va transport vositalari bojxona organiga taqdim etilgan paytdan boshlab chiqarishga ruxsat berilgunga qadar tanlangan rejimga muvofiq bojxona omborida boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan vaqtincha saqlanadi.

Ushbu Kodeksga muvofiq vaqtincha saqlash rejimiga boshqa tovarlar va transport vositalari ham joylashtirilishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini vaqtincha saqlash rejimiga joylashtirishda qisqa deklaratsiya qo'llaniladi.

Tovarlarning vaqtincha saqlash rejimida turish muddati ikki oydan oshmasligi lozim, Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. (O'zR 15.12. 2000 y. 175-II-son Qonuni tahriridagi qism). Vaqtincha saqlash rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi ushbu Kodeksda belgilanadi.

Bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan va eksport rejimiga ko'ra olib chiqishga mo'ljallangan tovarlarni bojdan, soliqlardan ozod qilish yoki to'langan summalarni qaytarish - Agar tovarlarni amalda chetga olib chiqish vaqtida to'lovlardan ozod qilish yoki to'langan summani qaytarish nazarda tutilgan bo'lsa, bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan va eksport rejimiga ko'ra olib chiqishga mo'ljallangan tovarlar bojdan, soliqlardan ozod qilinadi yoxud to'langan summalar qaytariladi. Bu tovarlar bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan kundan boshlab uch oydan kechikmay olib chiqilishi lozim.

Tovarlar belgilangan muddatlarda amalda olib chiqilmagan taqdirda boj, soliqlar, shuningdek ularning foizlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda to’lanadi.

O’zbekiston Respublikasi bojxona hizmatining tashkil topishi va rivojlanishining o’ziga hos jihatlari shundaki mamlakatimizning asosiy bojxona konunini yangilash ishi uzok va puhta olib borilgan. Konun loyihasi ustida ishlash bojxona ishiga doir meЪeriy-hukukiy hujjatlarni tizimga solishdan boshlangan. Keyingi ikki yilning o’zidagina ushbu sohani tartibga soladigan o’nlab nizom va yo’riknomalar kayta ishlandi. Bular bojxona rejimlari, ayrim taomillar, bojxona bilan boglik infratuzilma hodimlari: bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtirishi bo’yicha mutahassis faoliyatiga taallukli hujjatlardir.

Tegishli o’zgartirish va ko’shimchalar amaldagi Bojxona kodeksiga ham kiritildi. Bir vaktda kodeksning yangi tahriri loyihasi ustida ham ish olib borildi. Bunda amaldagi konunni ko’llash amalieti, MDX bo’yicha hamkor davlatlarning bojxona konunchiligi, hozirgi halkaro bojxona amalietining amalda ko’llanishi, shuningdek Jahon savdo tashkilotining konun-koidalari, 1999 yil yangilangan tahrirda kabul kilingan “Bojxona taomillarini soddalashtirish va uygunlashtirish to’grisida” Kioto konvensiyasi va bojxona nazoratini tashkil etish masalalarini tartibga soladigan boshka halkaro konvensiyalarning koidalari inobatga olingan. Konun loyihasini taerlaetganda DBK mutahassislari kodeksga bevosita ta’sir etadigan, konunosti hujjatlari mikdorini iloji boricha kiskartiradigan hujjat bo’lishi kerakligidan kelib chikdilar, chunki mufassal va anik-puhta konun bojhonani tartibga solish sohasida barkarorlik va oldindan ayta olishlik kafolatidir. SHu bois bojxona organlari va TIF ishtirokchilari o’rtasidagi hukukiy munosabatlar asosiy meъyorlarining muhim kismi idoraviy meъyoriy hujjatlardan yangilangan konunga o’tkazildi. Bojxona to’lovlarini hisoblab olish va to’lash yoki undirishning barcha masalalari bevosita konun loyihasida aks ettirildi. Biroq bojxona boshqaruvi jarayonining har bir bosqichini imkoni boricha batafsillashtirish amalda bajarib bo’lmaydigan vazifa. Imkoni boricha bevosita amal qiladigan konun yaratish maksad kilib olingan bo’lishiga karamay, hozir unga ko’shimcha meъeriy-hukukiy hujjatlarni ishlab chiqmasa bo’lmasligi ravshan bo’lib koldi. Bu nafakat Davlat bojxona ko’mitasi, balki loyihani ishlab chiqishning turli boskichlarida ishtirok etgan halkaro ekspertlarning ham nuktai nazaridir. Misol uchun, ushbu hujjatga bojxona bojlarining stavkalari, tovarlarni tasniflash koidalarini kiritib bo’lmaydi. Zero u bojxona tariflari bilan tartibga solishning barcha o’ziga hos detallarini batafsil tavsiflab berishi kerak bo’lgan amaliy yo’riknoma emas.

### 3.3.Bojxona deklaratsiyasi, bojxona rasmiylashtiruvining maxsus soddalashtirilgan taomillari

Bojxona deklaratsiyasini o’zgartirish, to’ldirish va qaytarib olish - Bojxona deklaratsiyasida ko’rsatilgan ma’lumotlar bojxona organining ruxsati bilan deklarant tomonidan o’zgartirilishi yoki to’ldirilishi, topshirilgan bojxona deklaratsiyasi esa qaytarib olinishi mumkin.

• O’zgartirish, to’ldirish yoki qaytarib olish faqatgina:

- bojxona deklaratsiyasini tekshirish boshlanguniga qadar;
- tovarlar va transport vositalarini ko’zdan kechirish boshlanguniga qadar;
- ko’rsatilgan ma’lumotlarning noto’g’ri ekanligi bojxona organi tomonidan aniqlanguniga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona deklaratsiyasini o’zgartirish yoki to’ldirish uning amal qilish doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin emas.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari o’z tashabbusi bilan, shaxsning topshirig’i yoki iltimosiga binoan yozma bojxona deklaratsiyasini to’ldirishga, bojxona deklaratsiyasida ko’rsatilgan ma’lumotlarni o’zgartirish yoki to’ldirishga haqli emas, bojxona organlarining vakolatiga kiritilgan ma’lumotlarni bojxona deklaratsiyasiga kiritish hollari, shuningdek agar mashinada ishlov berish uchun foydalaniladigan kodli ma’lumotlar bojxona deklaratsiyasida kodsiz ko’rinishda mavjud bo’lsa, kodli ma’lumotlarni o’zgartirish yoki to’ldirish bundan mustasno.

Dastlabki bojxona deklaratsiyasi - agar deklarant alohida sabablar tufayli batafsil bojxona deklaratsiyasini taqdim eta olmasa, bojxona organi qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda muvaqqat yoki to’liq bo’lmagan bojxona deklaratsiyasini taqdim etish uchun ruxsat berishga haqli, bunda muvaqqat yoki to’liq bo’lmagan bojxona deklaratsiyasida bojxona maqsadlari uchun zarur bo’lgan asosiy ma’lumotlar bayon etilishi va etishmayotgan ma’lumotlar bojxona organi belgilaydigan muddatlarda taqdim etilishi shart qilib qo’yiladi.

Davriy bojxona deklaratsiyasi - ayni bir shaxs tomonidan ayni bir xil tovarlar va transport vositalari muntazam ravishda olib o’tilsa, bojxona organi muayyan davr mobaynida O’zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o’tiladigan barcha tovarlar va transport vositalariga bitta bojxona deklaratsiyasi berilishiga ruxsat etishi mumkin.

Davriy bojxona deklaratsiyasini topshirish hollari va tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

## 3.4.Tovarlarni deklaratsiyalashtirish to’g’risida umumiy ma’lumotlar

Tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash - O’zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o’tilayotgan yoki bojxona rejimi o’zgartirilayotgan tovarlar va transport vositalari, shuningdek boshqa tovarlar va transport vositalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan hollarda bojxona organiga deklaratsiya topshirilishi lozim.

Deklaratsiyalash tovarlar va transport vositalari to’g’risidagi, ular joylashtiriladigan bojxona rejimlari haqidagi aniq ma’lumotlarni, bojxona maqsadlari uchun zarur bo’lgan boshqa ma’lumotlarni belgilangan shaklda bayon etish orqali amalga oshiriladi.

Deklaratsiyalashning shakli va tartibi, shuningdek bojxona deklaratsiyasida ko’rsatiladigan ma’lumotlarning ro’yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlar uchun bojxona rasmiylashtiruvidan o’tkazilayotgan bojxona organiga deklaratsiya topshiriladi.

Tovarlar tashiydigan transport vositalari tovarlar bilan bir vaqtda deklaratsiyalanadi.

Юksiz transport vositalari va yo’lovchilar tashiyotgan transport vositalari O’zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o’tish vaqtida deklaratsiyalanadi.

Dengiz, daryo va havo kemalari o’zi etib kelgan O’zbekiston Respublikasi bojxona hududidagi port yoki aeroportda yoxud o’zi jo’nab ketgan O’zbekiston Respublikasi bojxona hududidagi port yoki aeroportda deklaratsiyalanadi.

Bojxona deklaratsiyasi bojxona organlari tomonidan belgilangan muddatlarda topshiriladi. Bu muddatlar tovarlar va transport vositalari ko’rsatilgan kundan e’tiboran o’n besh kundan oshmasligi lozim.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlardagi tovarlarni qo’l юki va bagaj holida bojxona chegarasidan olib o’tishda bojxona deklaratsiyasi tovarlarni ko’rsatish bilan bir vaqtda topshiriladi.

Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari O’zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o’tganidan keyin ko’pi bilan uch soat, bojxona hududidan chiqib ketayotgan transport vositalari esa O’zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o’tishiga ko’pi bilan uch soat qolganida deklaratsiyalanadi.

Ushbu moddada ko’rsatilgan muddatlar bojxona organlari belgilaydigan tartibda va shartlarda uzaytirilishi mumkin. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab u юridik ahamiyatga molik faktlardan dalolat beruvchi hujjatga aylanadi.

## Qisqacha xulosa

Bojxona ombori - Bojxona ombori shunday rejimki, bunda olib kirilgan tovarlar saqlash davrida import boji, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo’llanilmasdan bojxona nazorati ostida saqlanadi, eksport rejimida olib chiqishga mo’ljallangan tovarlar esa bojxona nazorati ostida ushbu Kodeksning 26-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar berilgan holda saqlanadi.

O’zbekiston Respublikasiga olib kirish, O’zbekiston Respublikasidan olib chiqish, O’zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o’tish man etilgan tovarlar hamda ro’yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa tovarlar bojxona ombori rejimiga joylashtirilishi mumkin emas.

Tovarlar bojxona ombori rejimida uch yil mobaynida turishi mumkin. Ushbu muddat tovarlarning ayrim toifalari va ayrim shaxslar uchun qonun hujjatlari bilan cheklanishi mumkin, lekin u bir yildan kam bo’lmasligi kerak.

**Mustaqil ishlash va o'z – o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Bojxona rasmiylashtiruvining tartibi.
2. Birinchi darajali tartibta va tezkor rasmiylashtiruvga oid tovarlar.
3. Bojxona deklaratsiyasi. Bojxona rasmiylashtiruvining maxsus soddalashtirilgan taomillari.
4. Tovarlarni deklaratsiyalashtirish to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Kodeksi. T. Adolat, 2017.

2. Jismoniy shaxslardan tomonidan bojxona chegaralari orqali tovarlar olib utilishini yanada tartibga solish tugrisida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 06.02.2018 yildagi PQ-3512-son, Kuchga kirish sanasi 08.02.2018

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining qarori 09.03.2018 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2856-1, Kuchga kirish sanasi 09.03.2018

4. Sh.Sh.Shoraxmedov, N.I.Asqarov, A.A.Namozov –Tashqi savdoni boj tarifi orqali tartibga solish. T: Fan va tehnologiya markazi, 2013 y. 11-73 bet.

5. A.P.Kireev – Mejdunarodnaya ekonomika. M: Mejdunarodnыy otnosheniya, 2014 g. 67-70 str.

6. V.G.Svinuhov – Tamojenno-tarifnoe regulirovanie VED. M: Ekonomist, 2014

7. V.B.Buglay, N.N.Livensev – Mejdunarodnыe ekonomicheskie otnosheniya. M: Finansы istatistika, 2015 g 13-21str.

# IV- MAVZU. BOJXONA TO’LOVLARI, SOLIQLARI, REJIMLARI

4.1. Bojxona to’lovlari va ularning turlari.

4.2.Tovarning bojxona qiymati va uni xisoblash usullari

4.3. Bojxona soliqlari va ularning turlari

4.4. Bojxona rejimlari tushunchasi va ularning turlari

4.5. Bojxona rejimlari va ularni qo’llash shartlari

## 4.1. Bojxona to’lovlari va ularning turlari.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o’tishda va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda quyidagi bojxona to’lovlari to’lanadi:

boj;

qo’shilgan qiymat solig’i;

aktsiz solig’i;

bojxona hududida qayta ishlash rejimidan va bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimidan foydalanish bilan bog’liq ruxsatnomalarni berganlik uchun yig’imlar; (O’zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi xat boshi).

bojxona rasmiylashtiruvi bo’yicha mutaxassisning malaka attestatini berganlik, bunday attestatni qayta rasmiylashtirganlik va uning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun yig’imlar; (O’zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi xat boshi).

bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig’imi;

tovarlarni saqlaganlik uchun bojxona yig’imi;

tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun bojxona yig’imi;

dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun haq.

Qonun hujjatlarida boshqa bojxona to’lovlari ham belgilanishi mumkin.

Bojxona chegarasi orqali olib o’tiladigan tovarlarga qonun hujjatlariga muvofiq boj, qo’shilgan qiymat solig’i va aktsiz solig’i solinadi. Tovarlar qaytarib olib chiqilgan taqdirda ilgari to’langan boj, qo’shilgan qiymat solig’i va aktsiz solig’i summalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilishi lozim.

Bojxona yig’imlari - Quyidagi harakatlar uchun O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorlarda bojxona yig’imlari undiriladi:

Tovarlar va transport vositalarini, shu jumladan kuzatuvchisiz bagajda, xalqaro pochta jo’natmalari va юklarda olib o’tilayotgan notijorat maqsadlaridagi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o’tkazganlik uchun;

tovarlar va transport vositalarini belgilangan joylardan tashqarida va bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvidan o’tkazganlik uchun;

tovarlar va transport vositalarini bojxona organlari egaligidagi bojxona omborlari va vaqtincha saqlash omborlarida saqlaganlik uchun;
tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun.

Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun asoslar - Tovarlar va transport vositalarining qonun hujjatlarida belgilanadigan bojxona qiymati bojni, aktsiz solig'ini va tegishli boj yig'imlarini hisoblab chiqarish uchun asos bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun tovarning bojxona qiymati asos bo'lib, unga to'lanishi lozim bo'lgan boj, aktsizga tortiladigan tovar bo'yicha esa, aktsiz solig'ining summasi ham qo'shiladi.

Bojxona to'lovlarini to'lovchilar - Bojxona to'lovlari deklarant tomonidan to'lanadi. Xar qanday manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lovchining o'rniga bojxona to'lovlarini to'lashga haqli.

Bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasi qabul qilingunga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtda to'lanadi. Tovarlar notijorat maqsadlari uchun olib o'tilayotganda bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasini qabul qilish bilan bir vaqtda to'lanadi.

Bojxona to'lovlarini to'lash muddatining o'tishi bojxona deklaratsiyasini topshirish muddati tugaganidan keyingi kundan boshlanadi.

Bojxona to'lovlari bojxona organiga, xalqaro pochta jo'natmalarida юborilayotgan tovarlarga nisbatan esa, - aloqa korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda to'lanadi.

## 4.2. Tovarning bojxona qiymati va uni xisoblash usullari

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarini qaytarish - Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining, shuningdek bojxona rejimlariga muvofiq qaytarilishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining summalari qaytarilishi yoxud to'langan paytdan boshlab yoki bunday to'lovlar undirilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida to'lovchining talabnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bo'lg'usi to'lovlar hisobiga o'tkazilishi lozim. Bojxona to'lovlari qaytarilganda ular uchun foizlar to'lanmaydi.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qonun hujjatlariga muvofiq boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i solinadi. Tovarlar qaytarib olib chiqilgan taqdirda ilgari to'langan boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i summalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilishi lozim.

Bojxona yig'imlari - Quyidagi harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorlarda bojxona yig'imlari undiriladi:

Tovarlar va transport vositalarini, shu jumladan kuzatuvchisiz bagajda, xalqaro pochta jo'natmalari va юklarda olib o'tilayotgan notijorat maqsadlaridagi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun;
tovarlar va transport vositalarini belgilangan joylardan tashqarida va bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun;

tovarlar va transport vositalarini bojxona organlari egaligidagi bojxona omborlari va vaqtincha saqlash omborlarida saqlaganlik uchun;
tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun.

Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun asoslar - Tovarlar va transport vositalarining qonun hujjatlarida belgilanadigan bojxona qiymati bojni, aktsiz solig'ini va tegishli boj yig'imlarini hisoblab chiqarish uchun asos bo'ladi.

### 4.3. Bojxona soliqlari va ularning turlari

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiyotni boshqarishga aralashish darajasi muxim axamiyat kasb etadi. Bunda davlat makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini olib boradi. Undan tashqari soxalar taraqqiyotini ta'minlash va korxonalar faoliyatini rivojlantirish masalalari xam davlat iqtisodiy siyosatiga bog'liq bo'lib bu borada xuquqiy normativ baza yaratiladi va asoslangan iqtisodiy siyosat ishlab chiqiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish davlat tashkilotlari tomonidan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va uni bajarilish jarayonini o'zida aks ettiradi. Bu chora tadbirlar mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvdagi ishtirokidan keladigan foydani olish, jaxon xo'jaligidagi davriy pasayishlarning ta'sirini yo'qotish yoki kamaytirish, shuningdek valюta kurslarining tebranishi va jaxon ixtisodiyotidagi boshqa salbiy xodisalarning ichki iqtisodiyotga ta'sirini pasaytirishga yoki yo'qotishga, dunyo bozorida milliy ishlab chiqarish maqeini mustaxkamlashga yo'naltirilgan. Boshqacha aytganda, davlat tomonidan tartiblash xar bir mamlikat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy vazifasini, ya'ni milliy iqtisodiyotni samarali rivojlanishi uchun qulay tashqi sharoit yaratishni ko'zda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartiblashga tub iqtisodiy isloxotlar amalga oshirilayotgan mamlakatlarda katta axamiyat beriladi. Ayniqsa O'zbekistonda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va xo'jalik юritishning yangi modelini shakllantirishda bosh islohotchi sifatida davlatga muxim rolь ajratilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solish xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladigan va ishtirokchi mamlakatlar manfaatlarini ta'minlashga, xalqaro ayirboshlashni rag'batlantirish va uning samaradorligini oshirishga, umuman jaxon xo'jaligini barqaror bo'lishiga va rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish demakdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni aloxida davlat darajasida, xam davlvtlararo darajada tartibga solish turli mamlakatlardagi sheriklar o'rtasida amalga oshiriladigan iqtisodiy operatsiyalarga, bitimlarga turli xil usullar, vositalar, yo'l-yo'riqlar yordamida ta'sir etish jarayonini aks ettiradi. Xalqaro iqtisodiy aloqalar rivojlangani sari ta'sir etish yo'llari xam takomillashib bormoqda. SHuningdek, o'zaro munosabatlarning murakkablashuvini, yangi ustivorliklarni, tashqi savdo va valюta- kredit bitimlarini tuzishda, xornjiy sarmoyalash va boshqa operatsiyalarda sheriklarning maqsad va manfaatlarini to'laroq xisobga oluvchi yangi yondashuvlar юzaga kelmoqda.

Tashqi iqtisodiy faliyatni iqtisodiy usullar bilan tartibga solish choralarini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy xolati va uning xalqaro maydondagi o'rni

o'zgarishlari bilan mutanosib bo'lishi lozim. Faqat shu xoldagina tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish masalalarini davlat manfaatlariga va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirib echish mumkin.

Bojxona tariflarini tartibga solish davlat siyosatini shakllashtirishda bojxona xizmatining tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlari asosida faol qatnashishini ta'minlash zarur. Boj tarifiga ta'rif beradigan bo'lsak shuni aytishimiz mumkinki, ixtiyoriy mamlakatning boj tarifi bojxona bojlarini aniq stavkalaridan iboratdir.

Bojxona boji – tovarlarni import yoki eksport qilishda, bojxona organlari tomonidan undiriladigan va eksport import sharoitini belgilovchi to'lanishi lozim bo'lgan to'lovdir.

Bojxona bojlari moxiyatiga ko'ra, uchta asosiy vazifani bajaradilar:

- fiskal, bu vazifa xam import va eksport bojlariga tegishlidir. CHunki bu bojlar davlat bюdjetini to'ldirish manbaalaridan biridir.

- protektsionistik (ximoya)- bu vazifa faqat import bojlariga ta'luklidir. CHunki ular yordamida maxalliy ishlab chiqaruvchilarni chet raqobatchilaridan ximoya qiladi;

- muvozanatlashtiruvchi, ya'ni mamkalat ichki bozoridagi narxni jaxon bozorlaridagi narxlardan past bo'lgan tovarlarni mamlakat xududidagi eksport qilishni oldini olish. Bu vazifa eksport bojlariga tegishlidir.

Tashqi savdo faoliyati azaldan xar bir mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlari shuningdek iqtisodiy barqrorlikni ta'minlashning muxim omili bo'lib xisoblangan. Tarixdan bojxona xizmatining rivojlanishi xam davlatlar o'rtasida savdo iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishiga bog'liq bo'lib bugungi kunga qadar takomillashib keldi.

Respublikamizning jaxon xo'jaligida o'z o'rniga ega bo'lishi, faol ishtirok etishini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davlatimizda bojxona xizmatini xamda bojxona ishini jaxon talablariga va xalqaro darajada tashkil etishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari Respublikamiz tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etuvchi organ bo'lib, ular amalga oshirayotgan bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvini samarali tashkil etish, samarali fiskal siyosatni amalga oshirish o'z o'rnida iqtisodiy nuqtai nazardan dolzarblikka ega.

Xar qanday davlat bo'lishidan qatъiy nazar savdo siyosati iqtisodiy taraqqiyot uchun muxim omil xisoblanadi va boj tarifi orqali tartiba solish uning asosiy mexanizmlaridan biri xisolblanadi.

Boj tarifi (customs tariff) o'z o'rniga qarab quyidagicha aniqlanadi:

- savdo siyosatining asosiy quroli va davlatning ichki bozorni tartibga solish vositasi, shuningdek jaxon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish va o'z ta'srini o'tkazish maqsadida xam qo'llaniladi;

- boj tarifida ko'zda tutilgan bojxona bojlari stavkalari bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari uchun tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar nomenklaturasi asosida belgilanadi;

- bojxona bojining aniq stavkasi, aniq bir tovarni bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqishda qo'llaniladi;

Bojxona chegarasi va geografik chegara o’rtasida farq mavjud bo’lib ular bir biriga o’xshash tushunchalar emas. Tovar deganda xr qanday mulk turi tushuniladi, ayniqsa bojxona chegarasi orqali olib o’tiladigan tovarlar keng qamrovli bo’lib misol elektr energiyasi va boshqalar.

Boj tarifi xar qanday davlatda aniq boj stavkalaridan iborat bo’ladi va ular bojxona chegarasi orqali kirib kelayotgan va chmqib ketayotgan tovarlardan undiriladi.

*Bojxona boji* (customs duty) – majburiy to’lov bo’lib bojxona organlari tomonidan eksport va import qilinayotgan tovardan undiriladi.

Bojxona bojlri asosan uchta funktsiyanibajaradi:

- fiskal, ya’ni import va eksport bojlari orqali davlat bюdjetining daromadlar qismi to’ldiriladi;
- pretektsionistik (ximoya) import boji orqali davlat o’zining maxalliy ishlb chqaruvchilarini kutilmagan raqobatdan ximoya qiladi;
- muvozanatlashtiruvchi, agarda ayrim tovarlar jaxon bozorlaridagi narxlridan past bo’lsa, eksport bojlari orqali eksport qilish mumkin bo’lmagan tovarlarni chetga chiqib ketishini oldini olishda ishlatiladi; Bojxona bojlarining sinflanishi:

Undirilish usuliga ko’ra:

- *advalor*– tovarning bojxona qiymatidan foizda xisoblanib undiriladi (misol uchun tovarning bojxona qiymatidan 20% miqdorida)
- *spetsifik (xos) – tovar birligidan o’natilgan tartibda undiriladi (misol uchun xar bir dona tovar uchun 10 dollar)*
- *aralash* – qorida ko’rsatilgan ikkala turdagi boj turini o’z ichiga oladi (misol uchun tovarning bojxona qiymatidan 20% lekin xar bir donasidan 10 dollardan oshmagan xolda)

Advolor bojlar savdoga solinadigan soliqdan farqli ravishda bir xil turdagi tovarlarga faqat ularning sifati turlicha bo’lgan xorllarda ko’proq qo’llaniladi. Advolr bojlarini qo’llanilishi ichki bozorni bir xilda ximoyalab turadi va xar qanday tovar narxi tebranishlari bюdjet daromadlarini o’zgartira olmaydi ya’ni tovarning narxi o’sishi yoki pasayishi foiz stavkasiga xech qanday ta’sir o’tkaza olmaydi balki narxlar o’zgarishi bilan u xam muntazzam o’zgarib boradi. Misol uchun 200 dollar turadigan tovarga 20%li advalor boj stavkasi o’rnatiladigan bo’lsa bu foiz stavkasining puldagi ko’rinishi 40 dollarga teng bo’ladi. Tovar narxining 30 dollarga oshishi bюdjet daromadlarinig xam 6 dollarga oshishiga olib keladi, agarda tovarning narxi 100 dollarga tushadigan bo’lsa davlat bюdjeti daromadlari xam 20 dolarga qisqaradi. Advalor bojlarining salbiy tomoni bojxona qiymatini to’g’ri xisoblashni talab qiladi, ularning to’g’ri xisoblanishi bojlarning undirilishini samaradorligini oshiradi. Tovar narxiga ko’p tomonlama iqtisodiy va ma’muriy omillarning ta’sir etishi advalor bojlaridan foydalanishda suъektiv boxolash masalasida bir qator muammolarni keltrb chiqarishi mumkin.

Xos bojlar standart tovarlarga nisbatan qo’llaniladi va bojxona bojlarini undirish jarayonlarida ma’suliyatni suisteъmol qilish extimolini kamaytiradi. Birgina xos bojlardan foydalangan xolda bojxona bojlarini undiradigan bo’lsak unda xos bojlarningtovarning narx teranishlariga юqori darajada bog’liqligini kuzatamiz. Misol uchun 8000 dollar turadigan avtomobildan 1000 dallar

miqdorida xos boj undirilsa  ushbu avtomobilning narxi 12000 dollarga o’zgarishi 12,5%li bojni 8,3%ga tushishiga olib keladi, bunga sabab xos tarif stavkalarining qo’llanilganligidir. Boshqa tomondan olib qaraganda iqtisodiy inqiroz paytida yoki tushish davrida xos bojlar maxalliyishlab chiqaruvchilarni samarali ximoya qiladi.

Undirilish obъektiga ko’ra :

- *import* – boji, davlatning ichki bozoriga erkin muomala uchun kiritilayotgan tovarlarga nisbatan qo’llaniladi. Asosan maxalliy ishlab chqaruvchilarni xorijiy raqobatchilardan ximoya qilishda qo’llaniladi.
- *eksport*  - boji, davlat bojxona chegarasidan chiqib ketayotgan tovarlardan udiriladi.va bundan asosiy ko’zlangan maqsad ichki bozordagi narxlarni jaxon bozoridagi narxlarni tenglashtiriladi;
- *tranzit* – boji, davlat xududidan o’tib ketayotgan tranzit tovarlardan undiriladi. Bu asosan savdo urushlari paytida qo’llaniladi.

Tavsiflanishiga ko’ra:

- *Mavsumiy* – bojlar, asosan xalqaro savdoni tezkor tartibga solish maqsadida qo’llaniladi, misol uchun qishloq xo’jaligi maxsulotlari. Odatda ularning mudati bir necha oydan uzog’i bilan bir yildan oshmasligi kerak.
- *Dempinga qarshi* – bojlar, ichki bozoga past narxlarda olib kirilayotgan tovarlarga nisbatan qo’llaniladi, agarda maxalliy ishlab chiqaruvchilarga bunday narxlarda tovar olib kirish zarar etkazsa ushbu boj turining qo’llanishi samarali natija beradi va ishlab chiqarish xajmini kengaytiradi;
- *kompensatsion* – bojlar, bunday turdagi bojlr bevosita va bilvosita subsidiyalar olib ishlab chiqarilgan va arzon narxda ichki bozorlarga kirib kelgan tovarlarga nisbatan qo’laniladi;
- *maxsus* –bojlar. Odatda bunday bojlar maxalliy ximoya qilish bilan birga savdo munosabatlarida ishlab chiqilgan xorijiy davlatlar siyosatiga javob tariqasida xam davlat manfaatlarini ko’zlagan xolda qo’llaniladi.

Bunday turdagi asosiy bojlar xamkorlar tomonidan majburiyatlar suisteъmol qilingan xolda qo’llaniladi. Bunday bojlar qo’llanilishida asosan ikki tomonlama sharnoma va kelishuvlar muxim rol o’ynadi va ular siyosiy yo’l bilan xal qilinadi. Bunday turdagi bojlar boshqa boj turlari qo’llanilmagan xolatda yoki buzilganda ishlatiladi.

Kelib chiqishiga ko’ra:

- *avtonom* – bojlar, xukumat organlarining br tomonlama xarakati natijasida vujudga keladi. Bunday paytda asosiy qarorni davlat qabul qiladi, va aniq boj stavkalari o’rnatiladi.
- *konventsion (sharnomali)* – bojlar, ikkitomonlama va ko’p tomonlama shartnomalarga asoslangan xolda ishlab chiqiladi va qo’llaniladi.
- *preferentsial* – bojlar, boj tarifi stavkalaridan past ko’rinishda qo’llaniladi va undiriladi xamda rivojlanayotgan davlatlarda eksport xajminioshirish maqsadida qo’llaniladi. 1971 yildan boshlab import tarifi stavkalarini kamaytirish xisobiga xam rivojlanayotgan davlatlarda bir qator ютuqlarga erishilgan.

1-jadval

**Bojxona bojlari turlari va ularni sinflanishi**

| **Undirilish usuliga ko'ra** | **Xos** | **Advalor** | **Aralash** |
|---|---|---|---|
| Undirilish obъektiga ko'ra | Import | Eksport | Tranzit |
| Tavsiflanishiga ko'ra | Mavsumiy | Dempingga qarshi | Kompensatsion |
| Kelib chiqishiga ko'ra | Avtonom | Konventsion | Preferentsial |
| Stavkalarning turlari bo'yicha | Doimiy | O'zgaruvchan | - |
| Xisoblanishiga ko'ra | Nominal | Samarali | - |

Manba: A. Kireev "Mejdunarodnaya ekonomika»1998 yil. Moskva

Stavkalarining turlari bo'yicha:

- *doimiy* – boj tarifi, stavkasi xukumat tomonidan o'rnatilgan bo'lib qaysiki o'zgartirish mumkin emas.
- *O'zgaruvchan* – boj tarifi, davlat organlari tomonidan o'rnatilgan va o'zgartirilishi mumkin bo'lgan tarif stavkalari kiradi bunda asosan ichki narxlarni jaxon bozoridagi narxlrga tenglashtirish jarayonida g'o'llaniladi. Misol uchun Evropada qishloq xo'jalik maxsulotlarining yagona narxini belgilashda qo'llaniladi.

Xisoblanish usullariga ko'ra:

- *nominal* – tarif stavkasi, boj tarifida ko'rsatilgan tarzda o'rnatiladi. Ular davlat importi va eksportini rivojlantirish jarayonida umumiy tarzdagi bojxona bojlarini undirilishini o'zida aks ettiradi.
- *samarali* – bojxona bojlarining real qiymatini tovarning oxirgi narxida aks ettiradi.

Tarif usullariga import va eksport bojlarini joriy qilish kirsa, nota'rif usullariga tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga subsidiyalar berish, kvotalash, litsenziyalash kabilar kiradi.[5]

## 4.4. Bojxona rejimlari tushunchasi va ularning turlari

Bojxona rejimlarining turlari - Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish ularning bojxona rejimlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyidagi turdagi bojxona rejimlari (bundan buyon matnda rejim) belgilanadi:

1) erkin muomalaga chiqarish (import);
2) reimport;
3) eksport;
4) reeksport;
5) tranzit;
6) vaqtincha olib kirish (olib chiqish);
7) vaqtincha saqlash;
8) bojxona ombori;
9) erkin bojxona zonasi;

[5] A.Kireev. Mejdunarodnaya ekonomika. M.1998 g. Юniti.

10) erkin ombor;

11) boj olinmaydigan savdo do'koni;

12) bojxona hududida qayta ishlash;

O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuniga muvofiq 13) band chiqarib tashlangan

13) bojxona nazorati ostida qayta ishlash;

14) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash;

15) yo'q qilish;

16) davlat foydasiga voz kechish.

SHaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalarining xususiyati, miqdori, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani yoki qaysi maqsadga mo'ljallanganligidan qatъi nazar, istalgan rejimni tanlashga yoki uni boshqasiga o'zgartirishga haqli.

Rejimlarning qo'llanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni tahriridagi qism)

## 4.5. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari

Bojxona rejimi - O'zbekiston respublikasining bojxona chegarasi orkali olib utiladigan tovarlar va transport vositalrining makomini bojxona maksadlari uchun belgilovchi koidalar majmui. Bojxona rejimlarini ikki guruhga bulish mumkin:

birinchi guruhga erkin muomalaga chikarish, eksport, reimport, reeksport rejimlarida tovarlar shahsga ihtieriga tulik utadi.

Ikkinchi guruhda - bojxona organi tomonidan urnatilgan shartlarga rioya etilgan holda, tovaralardan ma'lum maksadda foydalanish kuzda tutilgan - Bojxona ombori, vastincha saklash, Erkin bojxona va ombor zonasi, vaktinch olib kirish va olib chikish, boj olinmaydigan savdo dukoni, tranzit, kayta ishlash, юk kilish, davlat foydasiga voz kechish.

Ikkinchi guruhdagi rejimlar kupchiligi maqsadi savdo sotikni, ishlab chikarishni, halkaro transportni rivojlanishga va har hil iktisodiy muomalarni echishga karatilgan.

Toshkentda joylashgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining keng assortimenti bilan ulgurji savdo qiluvchi «M» firmaning asosiy etkazib beruvchilari poytaxt atrofidagi hududlarda joylashgan. Ammo korxona assortimentining ko'pchilik tovarlari O'zbekistonning boshqa hududlarida, Masalan N tumanda joylashgan bo'lishi yoki chet elda xarid qilinishi mumkin. Tabiiyki bunday xaridlar qo'shimcha transport va boshqa xarajatlar bilan bog'liq va narxlar o'rtasidagi zaruriy farq mavjud bo'lgandagina o'zini oqlaydi.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, transport tarifi-bu qo'shimcha xarajatlarning ko'zga tashlanadigan qismi xolos. Bundan tashqari hududiy uzoqda joylashgan etkazib beruvchidan xarid qilish, isteъmolchini moliyaviy zaxiralarni jalb qilishga (yo'lga zaxira, sug'urta zaxiralari), ekspeditor xizmatlarni to'lashga va balki bojxona va boshqa to'lovlarga majbur etadi. To'liq qiymatning logistik kontseptsiyasi, hududiy uzoqdagi etkazib beruvchidan xarid qilishda faqat transport xarajatlarini hisobga olish, bunday xaridni iqtisodiy maqsadga muvofiqligi to'g'risida to'liq ma'lumot bera olmasligini, bildiradi. Xaridni boshqa hududga o'tkazish bo'yicha barcha xarajatlar yig'indisi oldingi narxdan kam bo'lgan taqdirdagina, qaroor qabul qilish mumkin.

***Mavzuga nazariy izohlar.***

Hududiy uzoqda joylashgan etkazib beruvchidan xarid qilishning maqsadga muvofiqligini baholash, etkazib beruvchi tanlashning egri chizig'ini qurish va undan foydalanishga asoslagan. Oldin shunday юk birligini tanlash lozimki ko'rilayotgan masaladagi barcha tovarlar uchun uni tashishning tarif qiymati bir xil bo'lsin. Bunday юk birligi sifatida 1 $m^3$ ni olamiz.

Etkazib beruvchini tanlash egri chizigi funktsional bog'liqlik grafigi ko'rinishida tasvirlangan bo'ladi. Bu erda, argument-«N» tumanida 1 $m^3$ юkni xarid qiymati, fuktsiya 1 $m^3$ юki «N» tumanidan Toshkentgacha olib kelish harajatlarining ushbu юk 1 $m^3$ ni N tumanidagi xarid bahosiga nisbati (foizda).

Юk xarid qiymatlarining bir necha ma'nolari uchun qurilgan egri chiziqa, hamda Toshkent va N tumanidagi xo'jalik assortimenti mahsulotlariga bo'lgan, narxlarning taqqoslama spetsifikatsiyasiga ega bo'lgan holda qaysi tovarni N tumanida qaysinisini esa Toshkentda sotib olish lozimligi to'g'risida tezda qaror qabul qilinishi mumkin.

N tumanida xarid qilinishi mumkin bulgan, M firma assortimentidagi tovarlar, 8.3-jadvalning 1-ustunida sanab o'tilgan.

***Topshiriq.***

To'liq qiymat tahlili asosida yoki mahsulot turini N tumanida sotib olish maqsadga muvofiqligi tug'risida qaror qabul qilish.

Hududiy uzoqda joylashgan etkazib beruvchidan tovarlar xarid qilish to'g'risida qaror qabul qilinishi, quydagi 4-masala echimi kurinishida taqdim etish tavsiya etiladi

1. N tumanidan Toshkentgacha qiymati xar xil bo'lgan юklarni 1$m^3$ ni tashish bilan bog'lik qo'shimcha xarajatlarni hisoblash.

**2.** Hisoblangan xarajatlarni ushbu юk qiymatidagi ulushini aniqlash.

3. Qo'shimcha xarajatlarni 1$m^3$ юk qiymatidagi ulushini qiymatga bog'liqligi grafikini chizish.

4. Grafikdan foydalangan xolda, M firmasi assortimentidagi u yoki bu tovarlarni N tumanida xarid qilish maqsadga muvofiqligini aniqlash.

Uslubiy ko'rsatmalar.

1. 1$m^3$ юkni N tumanidan Toshkentgacha tashish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar hisobini, xarid qiymati buyicha assortimentning shartli pozitsiyalari uchun, 1 jadval bo'yicha bajarish. Bunda quyidagi shartlarni etiborga olish lozim:

- N tumanidan Toshkentgacha etkazishning tarif qiymati barcha tovarlar uchun bir xil va 1$m^3$ юk uchun 3000 so'mni tashkil etadi;
- N tumanidan tovarlarni etkazish mudati 10 kunga teng;
- N tumanidan etkaziladigan tovarlar uchun firma besh kun muddatga sug'urta zaxiralarini yaratishi zarur;
- Sug'urta zaxirasi va yo'ldagi zaxira xarajatlari bank krediti foiz stavkalari asosida hisoblanadi- yiliga 36% (ya'ni, oyiga 3%, eki kuniga 0,1%);
- Tashuvchi tomonidan amalga oshiriladigan, ekspeditsiya xarajatlari юk qiymatining 2%ni tashkil etadi;
- M firmasiga toshkentdan etkazilgan юklar mexanizatsiya vositalari erdamida tushiriladi. N tumanidan kelgan юklarni esa qo'l mehnati yordamida

tushirilishi lozim. Tushirish qiymatidagi farq o'rtacha 200 so'm $m^3$ km tashkil etadi;

2.14-jadval.

| $1m^3$ юk ning xarid bahosi, so'm | N- tumanidan $1m^3$ юkni etkazishga (tashishga) bo'lgan qo'shimcha xarajatlar | | | | | | $1m^3$ юk qiymatidagi qo'shimcha xarajatlar ulushi, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Transport tarifi, so'm/$m^3$ | Sug'rta zaxirasiga bo'lgan xarajatlar, so'm | Yo'ldagi zaxiraga bo'lgan xarajatlar, so'm | Ekspeditor xarajatlari, so'm | Юkni qo'lda tushirishga xara jatlar, so'm. $m^3$ | Jami | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| 5000 | 3000 | | | | 200 | | |
| 10000 | 3000 | | | | 200 | | |
| 20000 | 3000 | | | | 200 | | |
| 30000 | 3000 | | | | 200 | | |
| 40000 | 3000 | | | | 200 | | |
| 50000 | 3000 | | | | 200 | | |
| 70000 | 3000 | | | | 200 | | |
| 100000 | 3000 | | | | 200 | | |

2. $1m^3$ юkni tashish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlarni ushbu юk qiymatidagi ulushini hisoblash uchun qo'shimcha xarajatlar yig'indisini (7 ustun)$1m^3$ юkni xarid qiymati (1 ustun)ga bo'lib, natijani 100ga kupaytiriladi. Hisob natijalari 8 ustunga bo'linadi.

3. Qo'shimcha xarajatlarni $1m^3$ юk qiymatidagi ulushini umumiy xarid qiymatiga bog'liqligi grafigi to'g'ri burchakli koordinatlar tizimida yasaladi. OX o'qi bo'yicha-$1m^3$ юkning xarid qiymatlari (1 ustun), OU o'qi bo'yicha-$1m^3$ юk qiymatidagi qo'shimcha xarajatlar ulushi (8 ustun) joylashadi.

4. M firmasi assortimentidagi u yoki bu tovarlarni N tumanidan xarid qilishning maqsadga muvofiqligi qurilgan grafik yordamida, quyidagi ketma-ketlikda aniqlanadi:

5. Xududiy uzoqda joylashgan va toshkentdagi etkazib beruvchilar narxi o'rtasidagi farqni foizlarda hisoblash, N shaxridagi bahoni 100% deb qabul qilgan xolda, natijalarni 8.4-jadvalning 5 ustuniga kiritish.

6. 2 ustun 8.4-jadvalning qiymatiga muvofiq nuqtani abstsisslar (OX) o'qida topib perpendikulyar o'tkazish; 5 ustun qiymatiga muvofiq nuqtani ordinatalar (OU) o'qida topib perpendikulyar o'tkazish.

Agarda perpendikulyarlarning kesishish nuqtasi, etkazib beruvchi tanlash egri chizig'idan pastda bo'lsa N tumanidagi xarid maqsadga muvofiq emas va aksincha.

Tahlil natijalari jadvalning 6 ustuniga kiritiladi.

2.15-jadval

| M firmasi assortimentdagi tovarlar | $1m^3$ ıokning N tumanidagi narxi, so'm | Bir birlik narxi so'm | | Narxdagi farq % (N shahridagi narx 100% deb olinadi) | N tumanida xarid qilish maqsadga muvofiqligi to'grisida xulosa (ha, yo'k) |
|---|---|---|---|---|---|
| | | N tumanida | Toshkent da | | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| Go'sht konservalari | 11000 | 12,0 | 14,4 | | |
| Sabzavot konservalari | 10000 | 10,0 | 14,5 | | |
| Meva konservalari | 15000 | 15,0 | 18,0 | | |
| Qandolatlar | 88000 | 100,0 | 115,0 | | |
| Asal | 37000 | 50,0 | 65,0 | | |
| CHoy | 110000 | 120,0 | 138,0 | | |
| Dukaklilar | 23000 | 20,0 | 22,0 | | |
| Makaronlar | 17000 | 20,0 | 26,0 | | |
| Uzum | 70000 | 70,0 | 80,5 | | |
| Konьyak | 120000 | 100,0 | 105,0 | | |
| Pivo | 25000 | 30,0 | 33,0 | | |
| Alkogolsiz ichimliklar | 20000 | 24,0 | 30,0 | | |

**Misol 35. Xarid faoliyati sohasidagi nazorat va buıortmalarini joylashtirish bo'yicha qaror qabul qilish.**

***Mashg'ulot maqsadi:*** Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etkazish jarayonini nazorat qilish uslublari va shartnomani uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun nazorat natijalaridan foydalanish uslublari bilan tanishish.

Etkazib beruvchini tanlash-firmaning asosiy vazifalaridan biridir. Etkazib beruvchini tanlashda imzolangan shartnomalar bo'yicha ish natijalari katta ta'sir ko'rsatadi, va ularni bajarishi asosida etkazib beruvchining reytingi hisoblanadi. Demak, etkazish shartnomalari bajarilishining nazorat tizimi, bunday hisoblashlar uchun zarur bo'lgan axborotni yig'ishga imkon berishi kerak. Reyting hisoblaridan oldin, u yoki bu etkazib beruvchini afzalligi to'g'risidagi qaror qaysi mezonlar asosida qabul qilinishini aniqlash lozim. Odatda, bunday mezonlar sifatida etkazilayotgan mahsulotlarning narxi, sifati va etkazish ishonchligi qo'laniladi. Ammo bu ro'yxat davom ettirilishi mumkin, xususan bizning hisoblashlarda 6ta mezon ishlatiladi.

Etkazib beruvchini tanlash masalasini echilishining keyingi bosqichi bu belgilangan mezonlar bo’yicha etkazib beruvchilarni baholashdir.

Bunda u yoki bu mezoning ularning yig’indisidagi ulushi ekspert usuli bilan aniqlanadi.

SHartli etkazib beruvchilar reytingini hisoblashni misol qilib keltiramiz jadval). Faraz qilaylik biror-bir vaqt ichida, firma-do’kon uchta etkazib beruvchidan bir xil mahsulot tovar olgan. SHuningdek, faraz qilaylik, keyinchalik bitta etkazib beruvchi xizmatlaridan foydalanish to’g’risida qaror qabul qilingan. Ularning qaysi biri firma-do’kon uchun afzalroq? Bu savolga quydagicha javob olishimiz mumkin.

Oldin har bir etkazib beruvchini har bir tanlangan mezon bo’yicha baholash lozim, keyinchalik mezon ulushi qiymati(mezonlar yig’indisidagi) bahoga ko’paytiriladi. Mezon ulushini qiymati va baho, bu holda, ekspert yo’li bilan aniqlanadilar.

2.16-jadval.

Etkazib beruvchi reytingini hisoblashga misol.

| Etkazib beruvchini tanlash mezoni | Mezon ulushining qiymati | 10 ballik shkala bo’yicha mezon bahosi | | | Mezon ulushining bahoga ko’paytmasi | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | №1 | №2 | №3 | №1 | №2 | №3 |
| Etkazish ishonchliligi | 0,30 | 7 | 5 | 9 | | | |
| Narx | 0,25 | 6 | 2 | 3 | | | |
| Sifat | 0,15 | 8 | 6 | 8 | | | |
| To’lov shartlari | 0,15 | 4 | 7 | 2 | | | |
| Rejadan tashqari etkazib berishlar imkoniyati | 0,10 | 7 | 7 | 2 | | | |
| Etkazib beruvchining moliyaviy ahvoli | 0,05 | 4 | 3 | 7 | | | |
| Jami | 1,00 | | | | | | |

Reyting, mezon ulushining bahoga ko’paytmalari yig’indisi bilan aniqlanadi. Turli etkazib beruvchilarning reytingini hisoblab va natijalarni taqqoslagan holda, eng yaxshi hamkor aniqlanadi. 8.6-jadvaldagi hisoblashlar natijasida №1 etkazib beruvchi aynan shunday, hamkordir, va u bilan shartnomani uzaytirish lozim.

Bizning misolimizda reytingning юqoriligi etkazib beruvchini afzalliligi ayon chunki reyting qancha юqori bo’lsa etkazib beruvchining salbiy tomonlari shuncha ko’pdir. Bunday holatda reytingi kam bo’lgan etkazib beruvchini tanlash lozim.

Beriladigan topshiriqdagi baholash tizimi etkazib beruvchining aynan salbiy jihatlarini hisoblaydi. Bunda qaysi birining reytingi kam bo’lsa shu etkazib beruvchi eng afzal hisoblanadi.

Topshiriq

№1 va №2 etkazib beruvchilar bilan shartnoma munosabatlarini uzaytirish to’g’risida qaror qabul qilish uchun, ularni ish natijalari bo’yicha baholashni amalga oshirish.

Uslubiy ko’rsatmalar

Birinchi ikki oy davomida firma-do’kon №1 va №2 etkazib beruvchilardan A va V tovarlarini olgan.

Etkazilayotgan o’xshash mahsulotning narxlari dinamikasi, ma’qul bo’lmaydigan sifatdagi tovarlarni etkazish dinamikasi, hamda etkazib beruvchilar tomonidan belgilangan etkazish muddatlarini buzilishining dinamikasi jadvallarda keltirilgan.

2.17-jadval

Etkazilayotgan mahsulotlar narxining dinamikasi

| Etkazib beruvchi | Oy | Mahsulot | Etkazish hajmi, birlik/oy | Bir birlik narxi, so’m |
|---|---|---|---|---|
| №1 | YAnvar<br>YAnvar | A<br>V | 2000<br>1000 | 10<br>5 |
| №2 | YAnvar<br>YAnvar | A<br>V | 9000<br>6000 | 9<br>4 |
| №1 | Fevral<br>Fevral | A<br>V | 1200<br>1200 | 11<br>6 |
| №2 | Fevral<br>Fevral | A<br>V | 7000<br>10000 | 10<br>6 |

Etkazib beruvchilarning biri bilan shartnomani uzaytirish to’g’risida qaror qabul qilish uchun har bir etkazib beruvchining reytingini hisoblash lozim. Etkazib beruvchilar quyidagi mezonlar bo’yicha baholanadi: etkazilayotgan mahsulotning narxi, sifati va etkazishlar ishonchliligi. A va V mahsulotlarni tinmasdan to’ldirilib turishni talab qilmasliklari e’tiborga olinadi. Demak, etkazib beruvchi reytingini hisoblashda mezonlarning quyidagi ulushlari qabul qilinadi:

Narx-0,5
Sifat-0,3
Ishonchlilik-0,2

2.18-jadval

Ma’qul bo’lmagan sifatdagi mahsulotlarni etkazish dinamikasi

| Oy | Etkazib beruvchi | Oy davomida etkazilgan sifatsiz tovar miqdori, birlik |
|---|---|---|
| YAnvar | №1<br>№2 | 75<br>300 |
| Fevral | №1<br>№2 | 120<br>425 |

2.19-jadval

Etkazishning belgilangan muddatlarini buzilishi dinamikasi

| №1 etkazib beruvchi | | | №2 etkazib beruvchi | | |
|---|---|---|---|---|---|
| YAnvar | 8 | 28 | YAnvar | 10 | 45 |
| Fevral | 7 | 35 | Fevral | 12 | 36 |

Etkazib beruvchi reytingini natijaviy hisobi 7-jadval ko’rinishiga keltiriladi.

*1. Narxlarning o'rtacha o'sish surъati hisobi (narx ko'rsatkichi).*

Birinchi mezon (narx) bo'yicha etkazib beruvchini baholash uchun har bir etkazib beruvchi bo'yicha u etkazadigan mahsulotlarga narxlarning o'rtacha o'sish surъatini ($\ddot{T}$) hisoblash lozim:

$$\overline{T}_н = \sum_{i=1}^{n} T_{нi} \cdot d_i \qquad (8.2)$$

bu erda: $T_{ni}$- etkazilayotgan mahsulotning i-turiga bo'lgan narxning o'sish surъati;

$d_i$ – joriy davrdagi etkazishlarning umumiy hajmida i- turdagi mahsulotning ulushi;

n- etkazilayotgan mahsulotlar turlarining miqdori;

Etkazilayotgan mahsulotning i-turiga bo'lgan narxning o'sish surъati quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T_{нi} = (\frac{P_{i1}}{Pi2}) \cdot 100 \qquad (8.3)$$

bu erda: $P_{i1}$- joriy davrdagi i-turdagi mahsulotning narxi;

$P_{i2}$- oldingi davrdagi i-turdagi mahsulotning narxi.

Etkazishlarning umumiy hajmidagi i-turdagi mahsulotning ulushi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$d_i = (\frac{S_i}{\sum_{i=1}^{n} S_i}) \qquad (8.4)$$

bu erda: $S_i$- joriy davrda i-turdagi etkazilgan mahsulotning summasi, so'm.

Misol tariqasida birinchi etkazib beruvchi uchun narxlarni o'rtacha o'sish surъatini hisoblaymiz:

A mahsulot bo'yicha narxlarni o'sish surъati:

$$T_{на} = \frac{11}{10} \cdot 100 = 110\%$$

V mahsulot bo'yicha

$$T_{нв} = \frac{6}{5} \cdot 100 = 120\%$$

Joriy davrdagi etkazishlarda A mahsulotning ulushi:

$$d_A = \frac{1200 \cdot 11}{1200 \cdot 11 + 1200 \cdot 6} = 0{,}65$$

V mahsulotning ulushi:

$$d_B = \frac{1200 \cdot 6}{1200 \cdot 11 + 1200 \cdot 6} = 0{,}35$$

bulardan kelib chiqqan holda:

$$\overline{T} = 110 \cdot 0{,}65 + 120 \cdot 0{,}35 = 113{,}5\%$$

Narxlarning o'rtacha o'sish surъati hisobini 8.10-jadval ko'rinishiga keltirish tavsiya etiladi.

2.20-jadval

| Etkazib beruvchi | $T_{na}$ | $T_{nv}$ | $S_A$ | $S_B$ | $d_A$ | $d_B$ | $\overline{T}$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| №1 | 110% | 120% | 13200so'm | 7200so'm | 0,65 | 0,35 | 113,5% |
| №2 | 111% | 150% | 70000so'm | 60000 so'm | 0,54 | 0,46 | 129,14% |

$\overline{T}_n$ning natijaviy qiymati, etkazib beruvchining reytingini hisoblash uchun 7-jadvalga kiritiladi.

***2. Ma'qul bo'lmagan sifatdagi mahsulotlarni etkazishning o'sish surъatini hisoblash (sifat ko'rsatkichi)***

Ikkinchi mezon (etkazilayotgan mahsulot sifati) bo'yicha etkazib beruvchilarni baholash uchun, har bir etkazib beruvchi bo'yicha ma'qul bo'lmagan sifatdagi mahsulotlarni etkazishning o'sish surъatini ($T_s$) hisoblaymiz:

$$T_c = \frac{d_{c1}}{dc2} \cdot 100 \qquad (8.5)$$

bu erda: $d_{c1}$- joriy davrdagi etkazishlarning umumiy hajmida, ma'qul bo'lmagan sifatdagi etkazishlarning ulushi;

$d_{c2}$-oldingi davrdagi etkazishlarning umumiy hajmida, ma'kul bo'lmagan sifatdagi etkazishlarning ulushi;

Etkazishlarning umumiy hajmida, ma'kul bo'lmagan sifatdagi mahsulot ulushini 2 va 3 jadvallar ma'lumotlariga asosan aniqlaymiz. Natijalarni 8.11-jadval shaklida keltiramiz.

Bizning misolimizda, birinchi etkazib beruvchi uchun, ma'kul bo'lmagan sifatdagi mahsulotlar etkazilishining o'sish surъati:

$T_{c1} = \frac{5{,}0}{2{,}5} \cdot 100 = 200\%$ ga teng bo'ladi.

Olingan natijani 7-jadvalga kiritamiz.

2.21-jadval

Ma’qul bo’lmagan sifatdagi mahsulotlarni, etkazishlarning umumiy hajmidagi ulushini hisoblash

| Oy | Etkazib beruvchi | Umumiy etkazish, birlik/oy | Ma’kul bo’lmagan sifatdagi mahsulotlarni, etkazishlarning umumiy hajmidagi ulushi, % |
|---|---|---|---|
| YAnvar | №1<br>№2 | 3000<br>15000 | 2,5<br>2,0 |
| Fevral | №1<br>№2 | 2400<br>17000 | 5,0<br>2,5 |

***3. O’rtacha kechikishi surъati o’sishini hisobi (etkazish ishonchliligi ($T_{ei}$) ko’rsatkichi).***

Etkazish ishonchliligining miqdoriy bahosi sifatida o’rtacha kechikish, ya’ni bir etkazishga to’g’ri keladigan kechikkan kunlar soni, xizmat qiladi. Bu kattalik, muayyan bir muddat ichidagi kechikkan kunlar umumiy sonining, ushbu davrdagi etkazishlar soniga nisbati orqali topiladi. (8.9-jadval ma’lumotlari).

SHunday qilib har bir etkazib beruvchi bo’yicha kechikishlarning o’rtacha o’sish surъati quyidagicha ifodalanadi:

$$T_{ek} = (\frac{Q_{yp1}}{Q_{yp2}}) \cdot 100 \qquad (8.6)$$

bu erda: $Q_{ur1}$ – joriy davrda bita etkazishga to’g’ri keladigan o’rtacha kechikish, kun;

$Q_{ur2}$- oldingi davrda bitta etkazishga to’g’ri keladigan o’rtacha kechikish, kun;

Keyinchalik, №1 etkazib beruvchi uchun o’rtacha kechikishini o’sish surъatini hisoblaymiz:

$$T_{ek1} = (\frac{\frac{35}{7}}{\frac{28}{8}}) \cdot 100 = 142{,}9;$$

$$T_{ek2} = (\frac{\frac{36}{12}}{\frac{45}{10}}) \cdot 100 = 66{,}6$$

Olingan natijani 8.12-jadvalga kiritamiz.

### *4. Etkazib beruvchilar reytingini hisoblash.*

Reytingni hisoblash uchun har bir mezon bo'yicha o'sish surъati qiymatini uning ulushiga ko'paytmasini topish zarur. jadvalning 5-chi ustuni qiymatlarining yig'indisi №2 etkazib beruvchi reytingini beradi.

2.22-jadval

Etkazib beruvchilar reytingini hisoblash

| Mezon (ko'rsatkich) | Mezon ulushi | Berilgan mezon bo'yicha etkazib beruvchi bahosi | | Bahoni ulushga ko'paytmasi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | №1 etkazib beruvchi | №2 etkazib beruvchi | №1 etkazib beruvchi | №2 etkazib beruvchi |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| Narx | 0,5 | 113,5 | 128,94 | 56,8 | 64,47 |
| Sifat | 0,3 | 200 | 125 | 60,0 | 37,5 |
| Ishonchlilik | 0.2 | 142,9 | 66,6 | 28,6 | 13,32 |
| Etkazib beruvchi reytingi | | | | 145,4 | 115,29 |

Bunda reyting, etkazib beruvchilarni salbiy jihatlari bo'yicha hisoblangan, shuning uchun ham qaysi etkazib beruvchining reytingini past bo'lsa shu etkazib beruvchi ma'kul hisoblanadi, va aynan shu etkazib beruvchi bilan shartnomani uzaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Javob № 2 Etkazib beruvchi bilan shartnomani uzaytirish lozim.

**Misol 36. Foyda chegirmalarni yo'qotish meъyorini ta'siri.**

Fermer pomidorni 1 kg ni 4000 so'mga sotadi. Keyin pomidor chakana sotuvlarga 1 kg 6000 so'mga realizatsiya qilingan, lekin maxsulotni 10 %i savdo jarayonida yo'qoladi.

Ish xaqi xarajatlari 1 kg 1000 tashkil etadi.

1 kg pomidor 900 gr etalon mahsulotni tashkil etadi, chunki 10 % mahsulot yo'qotish tufayli.

SHundan: 1kg/1,00 kg-0,10 kg = 1,11 fermer etishtirish kerak.

1 kg etalon mahsulot olish uchun shu asosida xamma chegirmalar aylantiriladi (konvertatsiya qilinadi).

1kg etalon mahsulot uchun sotuv narxi 600,0 so'm.

*Ish xaqi 1,0*1,11 so'mga =111,0 so'm*

Umumiy marketing chegirmalar 111 so'm.

Xarid narxi 400,0 * 1,11 q 444,0 so'm

YAlpi foyda (sotuv narxi – xarid narxi – 156,0) so'm.

Sof foyda (yangi foyda – xamma xarajatlar (ish xaqi)) – 45 so'm.

1,56-111q 45 so'm.

SHuningdek chegirmalarni kalьkulyatsiyasi eng yaxshi usuli bu boshlangich mahsulot sonini oluvchi realizatsiya qilgan mahsulot soning taqqoslanish imkonini beradi. Bu aniq baxo berish imkonini beradi va mahsulotni saqlash, tashish ustanovkasi. Xarajatlarni xisobga olgan xolda, marketing jarayonida yo'qotiladi. Keyingi misolda kolьkulьyasiyasi usuli belgilangan.

**Misol 37. Mahsulotlar yo'qotilishini kolькulьyatsiyasi.**

1 kg pomidor 10% yo'qotishda, bunda isteъmolchiga sotilgan pomidor 0,9 kg teng. Savdo keluvchi pomidorni 50 so'mdan 1 kg sotib oladi, lekin savdo chegirmasi 1kg 20 so'mga. Mahsulotni realizatsiya narxi 80 so'm 1 kg.

***CHegirmalar***

1. Xarid narxi 1 kg – 50 so'm.
2. 1kg pomidor transi* ustanovka – 20 so'm narxi.
3. Umumiy chegirma – 70 so'm.
4. Daromad 80 so'm. 0,3 kg – 72 so'm
5. Savdo keluvchi foydasi – 2 so'm.

**Misol 38. Realizatsiya narxining xisobi.**

Mahsulotni yo'qotishlari sifat ko'rsatkichiga qarab xam sifat yo'qotishlar, misol sotuvchi mahsulotini ma'lum miqdorini past narxda sotishga majbur. CHunki mahsulot ma'lum davr ichida buzulish bo'lishi mumkin. SHuning uchun ko'p mamlakatlarda tez buziladigan mevalar shanba kechasi arzonga sotiladi, chunki bozor kuni bozor ishlamaydi. Dushanba kuni esa yangi mahsulot paydo bo'lib raqobatni tugdiradi.

Sotuvchi fermerdan sotib olingan mahsulotini bir xil narxda butun partiyasini sota olmaydi, chunki bozordagi talab va taklif sabablari, sifat o'zgarishalar sababli narxlari o'zgaradi. SHuning uchun o'rtacha realizatsiya narxi xisoblanadi.

Misol uchun 100kg (100%) pomidor partiyasi quydagicha realizatsiya qilingan:

50 kg pomidor – 80 so'mdan – 4000 so'm.
20 kg pomidor – 50 so'mdan – 1000 so'm.
20 kg pomidor – 40 so'mdan – 800 so'm.
5 kg pomidor - 20 so'mdan – 100 so'm.
5 kg pomidor realizatsiya qilinadi.
Umumiy daromad - 5900 so'm

1 kg pomidor o'rtacha realizatsiya narxi:

5900:95 kg q 621 so'm.

Tashish va ko'chirish xarajatlari

Tovarlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish xarajatlarni e'tibordan chetda qoldirish oson. Xar bir ko'chirishda 1 kg mahsulotga bo'lgan xaradatlar unchalik katta bo'lmaydi. Ammo, maxsulot so'nggi isteъmolchiga etgunga qadar, bir emas bir necha marotaba tashiladi. Oxir, oqibatda, tashish xarajatlari mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatish mumkin, ayniqsa ishchi kuchi юqori qiymatiga ega bo'lgan mamlakatlarda.

Ayrim xollarda tashish xarajatlarining umumiy summasini aniqlash oson. Bitta kontenerni tashish qiymatini, ishchi ish xaqini tashilgan qadoqlar soniga nisbatidan kelib chiqqan xolda, taxminan aniqlash mumkin. Agarda юk tashuvchilar soatbay ishga qabul qilingan bo'lsa, (masalan, bozorlarda) vaziyat

yanada odiylashadi. Agarda u savdogarning doimiy ishchisi bo'lsa aksincha, murakkablashadi. Bunday ishchi fermer bilan bozor o'rtasidagi, юk mashinasi ichida, юradi. Ushbu vaziyatda u xech nima qilmaydi, ammo bunga qaramasdan ish xaqi to'lanadi.

**Qadoq xarajatlari.** Ko'pgina mahsulotlar qadoqlanishi lozim. ~alla, yirik meva va sabzavotlar, qovoq va tarvuz singari, bundan mustasno. Ular to'kma xolda tashinishi xam mumkin. Karam kabi bargli sabzavotlar xam ko'pgina xollarda to'kma tashiladi. Tashqi barglar qadoq vazifasini bajarib ichki barglarni ximoya qiladilar. Bunda qadoq xarajatlari bo'lmaydi, ammo tashqi barglar keyinchalik olib tashlanadi va mahsulot yo'qotilishi юzaga keladi.

Qadoq quydagi uchta asosiy maqsadda xizmat qiladi:

- mahsulot tashishni osonlashtiradi. Agar mahsulot qadoqsiz tashilganda xarajatlar ancha юqori юo'lar edi.
- Mahsulot ximoyasini ta'minaydi. Qadoqlarni takomillashtirish, birinchi navbatda osonlashtirishga emas, balki ximoyani kuchaytirishga qaratilgan bo'ladi.
- qadoq yordamda mahsulot realizatsiya uchun qulay bo'lgan birliklarga ajratilishi va qulay bo'lgan birliklarga ajratilishi va uning tashqi qiyofasini o'zgartirib narxini ko'tarish maqsadida ishlatilishi mumkin.

Ko'pgina xollarda fermer o'z maxsulotini o'zi qadoqlaydi, masalan qoplarga, va bunday qoplarga mahsulot logistik zanjirning barcha bosqichlaridan o'tadi. Murakkabroq va qimmatroq qadoq esa, masalan plastik kontenerlar, sotuvda zimmasidadir.

Ishlab chiqaruvchi bilan isteъmolchi orasidagi masofaning uzunligiga bogliq xolda, ushbu yo'lni bosib o'tishda meva va sabzavotlar bir necha marta qayta qadoqlanadi. Fermer o'z mahsulotini bozorga olib kelish uchun bitta qadoqdan foydalansa (masalan qoplardan). Bozordagi sotuvchi esa mahsulotni ulgurji bozorga olib kelish uchun taxta yashiklar yoki plastik konteynerlardan foydalanishi mumkin. Tilga olingan qadoqlarning barchasi xarajatlar bilan bogliq bo'lib, umumiy marketing xarajatlari kalьkulyatsiyasida xam ularni xisobga olish lozim. Agarda qadoq bir marta ishlatilardigan bo'lsa, xar 1kg mahsulotga to'gri keladigan xarajatlarni xisoblash murakkab ish emas (masalan, qop, konteyner, savat va x.).

Qimmatroq qadoqlardan foydalanganda, ularni qayta qayta ishlatish yo'llarini topish lozim. bunda bitta tashish qiymatini aniqlash uchun, u yoki bu konteyner (qadoq) necha marta ishlatilishini aniq bilib olish lozim. SHuningdek, bo'sh qadoqni logistik zanjir boshiga qaytarish xarajatlarini xam xisobga olish lozim. Agarda fermer o'z transportida tashishlarni amalga oshirsa, unda qadoqlarni qaytarishga bo'lgan xarajatlarni xisobga olmasa xam bo'ladi. Ammo, qadoqlarni qaytarish uchun xam xaq to'lansa, unda qadoq xarajatlari ancha oshib ketadi. Quydagi misolni ko'rib chiqamiz:

**Misol 39. Qadoq xarajatlari kalьkulyatsiyasi.**

Faraz qilaylik, apelьsinlar taxta ekinlarga 20 kg-dan qadoqlanadi. Kichik ta'minlash ishlari yordamida xar bir 10 marta ishlartish mumkin. YAshik narxi 10 dollar, ta'mir ishlari –2 dollar, xar bir bo'sh yashikni qaytarish – 1 dollar.

Unda 1 ta tashish uchun qadoq narxi:

((yashik birlamchi qiymati Q ta’mir)/tashishlar soni) Q bo’sh yashikning qaytarishning (10 Q 2)/10Q1q2,20 dollar 20 kg apelьsin-ga, yoki 1 kg uchun 0,11 dollar.

Qadoqning takomillashgan turlari, yo’qotishini kamaytirish imkoni bo’lganda, qo’llaniladi. Ammo, tez buziladigan mahsulotlar qimmat qadoqni talab qilmaydi, chunki uni ishlatishdan bo’lgan foyda minimaldir. Maxalliy xom – ashyodan tayyorlangan qadoqlardan foydalanish, ayniqsa maqsadga muvofiqdir.

**Saqlash xarajatlari**

Saqlash xarajatlari 4-ta asosiy kategoriyalarga bo’linadi:

- 1 kg mahsulotni omborga yoki rifrejeratorga (muzlatgichga) qo’yishning xaqiqiy qiymati. Ushbu xarajatlar guruxi bino amortizatsiyasi, qo’riqlash, elektor energiyasi va boshqa komunal xizmatlarga, xamda xizmat ko’rsatkichga bo’lgan xarajatlarni o’z ichiga oldai;
- omborxonadagi mahsulotni saqlash bilan bogliq bo’lgan xarajatlar, masalan kimyoviy vositalar qiymati;
- omborxonadagi mahsulot sifatini yo’qotish bilan bogliq bo’lgan xarajatlar;
- maxsulot omborxonada turgan vaqtdagi mulkdor moliyaviy xarajatlar.

Kompaniya xarajatlari kattaligicha ta’sir etuvchi eng yirik omil bo’lib, quvatlardan foydalanish xizmat qiladi. Agarda, ombor doimo to’la quvvatda ishlatilsa, ya’ni to’lib tursa, mahsulot birligiga bo’lgan xarajatlar kam bo’ladi. Omborxona bo’sh bo’lgan taqdirda esa xarajatlar oshib boraveradi.

Sotuvchi tijorat omborxonalaridan foydalanib, ularning xizmatlarini kg-kun, yashik-xafta yoki reja oy asosida to’lansa, unda xaqiqiy saqlash xarajatlarini xisoblash murakkab ish emas. Sotuvchi butun bir katta omborni ijaraga olsa unda saqlash xarajatlari quydagicha xisoblanadi.

**Misol 40. Saqlash xarajatlari kolьkulyatsiyasi.**

Faraz qilaylik, ombor 600 dollarga 120 kunga ijaraga olingan bo’lib, uning o’rtacha юklamasi kuniga 250 qop kartoshkani tashkil etsin.

Unda saqlash xarajatlari quydagicha xisoblanadi:

600/120 q 5 kuniga dollar

5/250q0,02 dollar qop/kun

shu bilan birga mahsulotning omborda turishi, sotuvchi uchun moliyaviy xarajatlari bilan kuzatiladi. Saqlash xarajatlarini xisoblashning reallik uslubi 8 misolda ko’rsatilgan, unda qo’shimcha xarajatlar sifatida bank foizi olingan. Ammo misolda 4 oymahsulotni saqlash xech qanday yo’qotishga olib kelmagan xaqiqatda esa yo’qotishlar albatta bo’ladi.

**Misol 41. Vaqt saqlash xarajatlarini hisoblash.**

Faraz qilaylik sotuvchi xar bir qopiga 10 dollardan kartoshka sotib olib uni 4 oy davomida omborxonada saqlaydi. Buning uchun u yiliga 12 % xisobidan

bankdan pul olishi lozim. bunda bank % qiymati 10*0,04 (12% yiliga 4 oy uchun) q 0,4 dollar xar bir qop uchun.

SHunday qilib, 1 qop kartoshkani saqlash uchun xaqiqiy xarajatlari quydagicha xisoblanadi. 1 qopni 120 kun davomida 0,02 dollardan saqlash xarajati q 2,40 dollar. 1qop uchun kridit bo'yicha % q 0,40 dollar. SHunday qilib, 1 qop xarajatlarning umumiy summasi 2,80 dollarga teng.

**Qayta ishlash qiymati**

Mahsulotning bir shaklidan ikkinchisiga o'tkazish ya'ni qayta ishlash qayta ishlovchi korxonaning ekspluatatsiyasiga bo'lgan xarajatlar bilan kuzatiladi. Marketing xarajatlarini xisoblayotganda qayta ishlash xarajatlarini yana ikki muhim jihatlarini xisobga olish lozim. Birinchidan, mahsulotning moddiy (jismoniy, fizik) yo'qotilishi singari, fermerdan xarid qilingan 1 kg mahsulot, qayta ishlanib isteъmochiga sotilgan 1 kg mahsulotga to'gri kelmaydi. Bu erda savol tuziladi fermerdan sotib olingan 1 kg mahsulotning qaysi qismi so'ngi mahsulot sifatida isteъmolchiga sotiladi

ikkinchidan qayta ishlash jarayoni natijasida asosiy mahsulot bilan bir vaqtda qandaytsdir qo'shimcha mahsulot ham paydo bo'lishi va u ham realizatsiya qilinishi mumkin. demak kolьkulyatsiyada ushbu qo'shimcha mahsulot narxi ham xisobga olingan bo'lishi lozim.

Mahsus qayta ishlangan ayrim mahsulotlarda (masalan, isteъmolga tayyor go'sht), xom ashyo qiymati realizatsiya qiymatining kichik bir qismini tashkil etadi. Ayrim xollarda 10 % dan ham kam. Qolgan qismi esa qayta ishlash qadoqlash va boshqa markeitng xarajatalari ammo biz faqatgina birlamchi qayta ishlash qiymatini ko'rib chiqamiz qiymat kolьkulyatsiyasini qilish uchun mahsulot chiqish meъyorini qo'shimcha mahsulot miqdori va qiymatini hamda qayta ishlashga bo'lgan o'z xarajatlarini xitsobga olish lozim. Misol ko'rib chiqamiz.

**Misol 42. Qayta ishlash qiymati kalьkulyatsiyasi**

Faraz qilaylik guruch tegirmonda mahsulot chiqish meъyori 70 % realizatsiya qilinadigan qo'shimcha mahsulot xajmi esa xom oshyo vaznini 25 5 tashkil etadi. 1 kg guruch xom oshyosini qayta ishalsh xarajatlari 100 so'm bu umuiy yillik xarajatalarining qayta ishlangan xom oshyo vazniga nisbatidir. 1 kg xom oshyoni xarid narxi 200 so'm, qayta ishlangan mahsulot qiymati

1kg 100 so'm 1 kg xom ashyoni qayta ishlash qiymati

1 kg xom oshyoni xarid qiymati 200 so'm qayti ishlash xarajatlari 100 so'm jami 300 so'm qo'shimcha mahsulotning realizatsiya qilishdan olingan tushum

0,25 kg *100 so'm-25 so'm

1 kg xom oshyo tannarxi 400 so'm –25so'm-375 so'm

1kg guruchning tannarxi 375 so'm

tegirmonchining xarajatlari to'grisidagi aniq axborotni xar doim ham olib bo'lmaydi. Ular yoqilgi nafaqat xizmat ko'rsatish va ta'mir qiymatlarini o'z ichiga oladigan ishlab chiqarish xarajatlarini balki mehnat xarajatlar tegirmsonga va qo'shimcha xonalarga qo'yilgan kapital qiymati va yo'qotilgan imkoniyatlar xarajatlarini ham o'z ichiga oladi. Ayrim mamlakatlarini qishloq xo'jalik ishlab

chiqarilashini bюdjetlari modellarini ishlab chiqardilar. Xuddi shunday modellarini tegirmon egalariga kredit beruvchi banklar ham ishab chiqadi. Ushbu modellar korxona faoliyatini o'ziga xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda turlicha bo'lishlari mumkin.

**Kapital qiymati**

Logistik xarajatlarini asosiy tashkil etuvchisidir. (komponentidir) turli mamlakatlarda u % stavkalari darajasiga bogliq. Kapital qiymati quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- Mahsulotni xarid qilish va uni omborda saqlash uchun lozim bo'lgan pullar narxi ko'pgina kichik savdogarlar mahsulotning sotib oladilar, uni qayta sotadilar va tushumdan va yanada ko'proq mahsulot sotib olish uchun foydalanadilar va xokazo demak ularni joriy kapitaldagi ehtiyoji cheklangan.

Ikkinchi bir tomondan, mahsulotni sotib olib uni uzoq vaqt davomida omborda saqlaydigan savdogarlar, katta joriy kapitalga ega bo'lishlar lozim. Ayrim mamlakatlarda savdogarlar yigim terim boshlanmasdan oldin fermerlar mahsulotlarni sotib oladilar, ya'ni ekilgan maydon yoki mevali daraxt (kontraktatsiya shartnomalari) demak, ular o'z faoliyatini uzoq vaqt davomida moliyalashtirib turishari lozim va ularni xarajatlari yanada юqori bo'ladi.

- Savdogarga ta'luqli ombor yoki avtotransportga qo'yilgan kapital qiymati
- Boshqa bino va uskunalar qo'yilgan kapital qiymati, masalan ofis xonalari gallani tortish va quritish uskunalari va x
- Savdogarni mulki bo'lgan transport xonalar va uskunalarni omartizatsiyasi
- Mahsulotning kichik partiyasi uchun galla qiymatini xisoblash juda ham murkkab operatsiya sanaladi. Bunda xizmat ko'rsatishga bo'lgan tijorat stavkalaridan foydalanish lozim agarda fermer bu maqsadlar uchun o'z uskunalaridan foydalansa ham ushbu tijorat stavkalari transport, uskunalar va x.larga qo'yilgan kapital qiymatini xisobga olgan xolda ishlash chiqilgan bo'ladi.

Ayrim xollarda konsalting xizmati ishchilari ombor yoki tegirmon qurish юk mashinasini sotib olish savollari bo'yicha xam maslahat beradilar. Bunda kapital qiymati va omortizatsiyasini kooperativ faoliyatidan kutilayotgan yillik daromad bilan taqqoslash lozim.

Kapital qiymati bo'lib esa bankka to'lanadigan kredit % stavkasi xizmat qiladi. % stavkalari bir xil darajada qolishini faraz qilib xar yili to'lanadigan kredit summasi qismini xisobalsh lozim.

Amortizatsiya to'gri chiziqli usul yordamida xisoblanishi mumkin ushbu usul bo'yicha omortizatsiya obъektini xayotiy davri aniqlanadi, keyin uning birlamchi qiymatidan likvidatsion kiymati iyirib olingan natija xaetiy davriga bulinadi.

Amortizatsiya xisoblashning alternativ va anikrok usuli bu amortizatsiya obektining xaryilgi balans kiymatidan doimiy foiz stavkasi bilan xisoblanadi.SHunday kilib ,mulkdan foydalanishninig birinchi yildagi kiymati ,keyingilarga nisbatan tezroq kamayadi.masalan narxi 10 mln bo'lgan юk mashinasining omoizatsiya meъyorining 10 % tashkil etadi. 1 yilda omortizatsiyani

summasi 1 mln ga teng bo'lsa 2 yil 900 mingga teng bo'ladi ya'ni 10 mln-1 mln * 10 %

Logistik daromadning chegarasi

Daromad chegarasi-bu logistika zanjirini xar bir funktsional bo'giniga to'gri keladigan, so'ngggi o'rtacha realizatsiya narxini %dir. Ushbu chegara mahsulot bir bosqichdan ikkkinchi bosqichga o'tishdagi xqoplashi va ushbu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarga daromad tayyorlashi lozim. daromadlilik chegarasini xisobi 10 mioslda ketritilgan.

**Misol 43. Funktsional bosqichlar bo'yicha logistik daromadlililk chegarasini xisoblash.**

Xisoblar, oldingi misolllardan keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan ya'ni fermerdan xarid qilish narxi 500 so'm/kg

O'rtacha ulgurji realizatsiya narxi 900 so'm/kg

O'rtacha chakana narxi 1170 so'm / kg ishlab chiqaruvchi ulushi 500/1170-0,427 yoki 43 %.

Daromadlilikni ulgarji chegarasi (900-500)/1170-0,342 yoki 34 %

Daromadlilikning chakana chegarasi (1170-900/1170-230)yoki 23 %

Umumiy ulush 34%-57 %

2.23-jadval

Don mahsulotlari urug'ligini va ozukalarni saqlashda tabiy yo'kotish meъyorlari (dastlabki vazniga nisbatan %da)

| Don yoki urug' nomi | Qopda saqlaganda | | Sochilgan holda saqlanganda | |
|---|---|---|---|---|
| | 3 oydan 6 oygacha | 6 oydan ortiq | 3 oydan 6 oygacha | 6 oydan ortiq |
| Bug'doy va javdar | 0,08 | 0,14 | 0,12 | 0,18 |
| Suli va arpa | 0,10 | 0,18 | 0,15 | 0,25 |
| Grechixa | 0,12 | 0,20 | 0,16 | 0,25 |
| Makkajuxori doni | 0.18 | 0,22 | 0,25 | 0,30 |
| so'ta | - | - | - | - |
| No'xat va loviya | 0,14 | 0,18 | 0,18 | 0,23 |
| Kungabokar Raps va kanop urug'i | 0,18 | 0,23 | 0,25 | 0,27 |
| Kunjut urug'i | 0.12 | 0,22 | 0,14 | 0.22 |
| Er yongok urug'i | 0,18 | 0,24 | 0,28 | 0,32 |
| Bug'doy va javdar, maxsar | 0,20 | 0,25 | 0,30 | 0,40 |
| SHoli | 0,11 | 0,20 | 0,15 | 0,24 |
| Turli yormalar | 0.09 | 0.12 | - | - |
| Un | 0,09 | 0,12 | - | - |
| Turli pichanlar | 1,1 | 1,1 | 1,6 | 1,6 |
| Kunjara:<br>6 kungacha 0,07<br>15 kungacha 0,10<br>30 kungacha 0,16 | | | | |

**Tashish jarayonida mahsulot yo'kotishlarini hisobga olish**

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashishda konteynerlardan foydalanish hozirgi kunda ushbu sohada qo'yilgan muhim qadamlardan va asosiy usullardan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tez tashishda, mahsulotlarining uzoq muddat davomida o'z sifatini yo'qotmasdan saqlanishida konteynerlar orqali tashish alohida e'tibor talab etadi. Hozirda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashishda keng foydalanilayotgan konteynerlarga quyidagi konteyner turlari misol bo'la oladi: KL-450, KP-250, KB-500, A-517, TSKTB, SK-1-1, SK-1-1. Eng ko'p tashiladigan qishloq xo'jalik maxsulotlaridan kartoshka hisoblanadi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kartoshkani maxsus konteynerlarda tashish natijasida ularning yo'qotishlari ulushi 8 foizni tashkil etsa, uюmli tashishlar natijasida maxsulotning yo'qoitishlari ulushi 13,5 % ni tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki konteynerlarda mahsulotlarni tashish maxsulot sifatini buzilishini oldini olishga imkoniyat yaratadi.

Meva sabzavotlarni tashishda qishloq xo'jalik mahsulotini fizik va ximik xususiyatlarini inobatga olish va undan kelib chiqqan holda shartsharoitlarni moslashtirish lozim. Konteynerlar maxsus latoklar bilan jihozlangan bo'lib, u mahsulotni юklashda ancha mehnatni engillashtirishga imkoniyat yaratadi. Konteynerlar bo'shagach ularni bir biri bilan taxlash mumkin. Bu esa o'z navbatida konteynerlardan foydalanishda qulayliklar yaratadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatli etqazib berishda ularni o'z vaqtida tashishni tashkil etish muxim omillardan hisoblandi.

Umuman olganda qishloq xo'jalik maxsulotlarni tashishda maxsus konteynerlar va transport turlaridan foydalanish, юklash va tushirish ishlarni mexanizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Юqorida tilga olingan fikrlarni inobatga olgan holda, mahsulotni sifatli tashishda quyidagi asosiy omillarni ko'rsatish mumkin.

- etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarni o'z vaqtida zarur transport vositalari bilan ta'minlash va tashishni o'z vaqtida tashkil etish;
- mahsulotlarni tashishda maxsus konteynerlardan foydalanishni rivojlantirish;
- mahsulotlarni tushirish va юklash ishlarini amalga oshirishda zaxarlanishlarni minimal miqdorga keltirish.

**Transport xarajatlari.** Transport xarajatlari fermerlar o'z mahsulotlarini bozorga, sotuvchilar esa uni logistik zanjir bo'yicha isteъmolchiga tashishda paydo bo'ladi. Transport xarajatlari, er usti yoki ayrim xollarda suv transportida mahsulot birligini tashishda bo'lgan to'lovlarni o'z ichiga olganda, ular to'g'ridan to'g'ri deb aytiladi. Agarda fermer yoki sotuvchi mahsulotini o'z transportida tashisa, bunday xarajatlar egri deyiladi. Ayrim xollada ular moliyaviy ifodalanmasdan, yo'qotilgan imkoniyatlar xarajatlari sifatida ifodalanadilar.

Sotuvchi o'z shaxsiy transport vositachisiga ega bo'lganda, transport xarajatlarini xisoblash murakkablashadi. Unda quydagilarni xisobga olish lozim:

- xaydovchi va uning yordamchisining ish xaqi;

- yoqilgi, ta’mirlash, xizmat ko’rsatish va bosh qiymati;
- litsenziya, yo’l soligi, sug’urta qiymati va boshqa majburiy to’lovlar;
- bozorga kirish to’lovi;
- transport vositasi qiymati;

Юk mashinasidan foydalanishning yillik xarajatlarini xisoblasak, bank ssudasi bo’yicha to’lanayotgan foiz summasigina emas, balki mashinaning yillik amortizatsiyasini xam xisoblash lozim.

Yillik transport xarajatlari aniqlangandan so’ng, tonna kilomert qiymatini topish uchun, yil davomidagi, mashina mo’ljallangan, ish xajmini aniqlash lozim. U quydagilarga bogliq:

- mahsulotning bozordagi davriga;
- юk mashinasidan foydalanilmaganda, undan foydalanish mumkin bo’lgan subъektlarga;
- buzulish sabali mashinaning turib qolishi muddatiga;
- mashinada amalga oshiriladigan tashishlar soni va uzunligiga (masofasiga).

Ravshanki, transportda mahsulot tashishni qimmatlashtiruvchi xarajatlarning xilma xil turlari mavjud. Ko’pgina xollarda transport xarajatlari asosiy logistik xarajatlar bo’lib, ularni to’gri xisoblashishiga ko’p narsa bogliq.

**Misol 44. Transport xarajatlari kolьkulyatsiyasi.**

Faraz qilaylik, юk mashinasidagi bo’sh joy 40$m^3$ ga teng, uni ijaraga olish xarajati 500 dollarni tashkil etadi. 0,2$m^3$ sigimdagi kontenerga 8 kg pomidor, 0,4 $m^3$ sigimdagi kontenerga esa 10 kg yashil garimdori joylashtirish mumkin.

Unda 1kg kontener pomidor xamda garimdorining tashish xarajatlari quydagicha xisoblanadi:

500s / (40$m^3$/0,2$m^3$) q 2,50s 1 kontener pomidor uchun

250 s / 8 kg q 0,31 s 1 kg pomidor uchun

800 / (40/0,4) q 5,00 s 1 kontener garimdori uchun

5,00 s / 10 = 0,5 s 1 kg garidori uchun.

Mahsulotlarni saqlash muammosi juda muximdir, chunki ba’zi mahsulotlarni saqlashdagi xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarishdagi qiymatidan ham ortib ketadi. Xarajatlarni kamaytirish urug’lik, ozuqa-em va boshqa mahsulotlarning tannarxini pasaytirishga hamda uni sotib foyda olishga olib keladi. Xo’jaliklar tarkibidagi texnika bazasini korxonalarning rivojlanish yo’nalishiga, u joylashgan erning ob-havo sharoitiga qarab qurish, jihozlari va texnik hamda iqtisodiy tomondan unumli foydalanish zarur.

Ma’lumki, qishloq xo’jaligida etishtiriladigan har bir xom- ashyoning sifati qator omillarga bog’liq. Don va boshqa qishloq xo’jalik mahsulotlarining oziq-ovkat va texnologik qiymati to’g’ridan-to’g’ri nav, agrotexnik tadbir, ob-havo, etishtirish sharoiti, hosilni yig’ib olish usuli va muddati, hosil yig’ib olingandan keyingi tayyorlashda, tashish va saqlashga uzviy bog’liqdir. Mahsulotlarni unumli

saqlash nafaqat mavjud texnik bazasi, ombor, turli mashina va uskunalardan foydalanishga, saqlanajak mahsulotlarning chidamliligiga ham chambarchas bog'liqdir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarni nobud kilmasdan tashishni tashkil etish

Transport vositalarining unumdorligi asosiy hisoblanadi. Transport vositalari ish unumdorligi va unga texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlarning ta'sirini o'rganish va tahlil qilishda quyidagi formulardan foydalanish lozim bo'ladi.

Ma'lum davridagi tashilayotgan mahsulot miqdori tashilgan mahsulotning umumiy miqdori tonna bilan ifodalanadi.

Transport vositasining kunlik ish unumdorligi, bu bir qatnovda tashilgan юk hajmi (t) va bajarilgan transport ishi (юk oboroti) (tkm). Ular quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_K = \frac{T_{ИШ} \times q_H \times \gamma_{CT} \times \beta \times V_T}{l_{ЮК} + \beta \times V_T \times t_{O-T}}, \text{ t} \qquad (9.1)$$

$$P_K = \frac{T_{ИШ} \times q_H \times \gamma_{CT} \times \beta \times V_T \times l_{ЮК}}{l_{ЮК} + \beta \times V_T \times t_{O-T}}, \text{ tkm} \qquad (9.2)$$

Bunda,

*$q_n$- nominal юk ko'taruvchanligi;*

*$T_{ish}$- naryad vaqti;*

*$v_t$- o'rtacha texnik tezlik;*

*$\beta$ - bosib o'tilgan yo'ldan foydalanish koeffitsienti;*

*$\gamma_{st}$- юk ko'taruvchanlikdan statik foydalanish koeffitsienti;*

*$t_{o-t}$ - юk ortish-tushirishda bo'sh turish vaqti.*

Tashish hajmi tashilgan vositalar miqdorini ifodalamaydi negaki u mahsulotni tashish masofasiga bog'lik bo'ladi. SHuning uchun transport ishi faqat og'irlik miqdori tonna bilan o'lchanmasdan balki tonna km bilan o'lchanadi

Isteъmolchi va etkazib beruvchilar ma'lum bir xizmat ko'rsatish maydoni xakida aniq tassavurga ega bo'lmasdan avtomobil transport ishini ratsional tashkil eta olmaydilar.

Isteъmolchi va etkazib beruvchilar to'g'risida aniq ma'lumot olgandan keyin transport aloqalari va qishloq xo'jaligi юklari xajmi xakida dastlabki xisoblarni olib boradilar

Юklarni tashishda og'irligi, transportabelligi, gabaritlari, ortish-tushirish uchun vaqt sarflari bilan birga transport ishi tarkibini xam bilish kerak.

Avtomobillarni ma'lum bir maqsadli ko'llash usullarini aniqlash uchun kuyidagi parametrlarni aniqlash lozim.

Tashish davridagi meъyoriy yo'kotishlarning puldagi ifodasi

$$S_p = 0{,}01 \cdot \bar{ц} \cdot P \cdot Q, \text{ sum /t} \qquad (9.3)$$

$\bar{ц}$ - 1t юkning o'rtacha bahosi;

P – transportda tashishda mahsulotni meъyoriy yo'kotish foizi (9.2-jadval);

Q – юk xajmi, t.

2.24-jadval

Avtomobil transportida tashishda yo'kotish meъyori

| Tashish masofasi, km | Yo'kotish meъyori, % | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Bortovoy avtomboil transportida tashish | | | | Refrejiratorlarda tashish | | |
| | uzum | olma | pomidor | kartoshka | uzum | olma | pomidor |
| 10 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,3 | - | - | - |
| 11-25 | 0,2 | 0,1 | 0,2 | 0,4 | - | - | - |
| 26-50 | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 0,5 | - | - | - |
| 51-75 | 0,4 | 0,3 | 0,4 | 0,6 | - | - | - |
| 76-100 | 0,5 | 0,3 | 0,5 | 0,7 | - | - | - |
| 101-125 | 0,6 | 0,5 | 0,6 | 0,8 | - | - | - |
| 126-150 | 0,7 | 0,7 | 0,7 | 0,9 | - | - | - |
| 151-175 | 0,8 | 0,8 | 0,8 | 1,0 | 0,8 | 0,6 | 0,6 |
| 176-200 | 0,9 | 0,9 | 0,9 | 1,1 | 1,0 | 0,6 | 0,7 |
| 201-225 | 1,0 | 1,0 | 1,0 | 1,0 | 1,0 | 0,7 | 0,7 |
